



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI

UMUMIY O‘RTA TA’LIMNING O‘QUV DASTURI

CHET TILI FANLARI (ingliz, nemis, fransuz)

**Umumiy o‘rta ta’limning
1-11-sinflari uchun**

**2022-2023
o‘quv yili uchun**



“Tasdiqlayman”

Respublika ta’lim markazi
direktori _____ Sh.Sattorov
“ ” _____ 2022-yil

“Ko‘rib chiqildi”

Respublika ta’lim markazi direktor
o‘rinbosari _____ I.Tillaboyev
“ ” _____ 2022-yil

Standart va baholash bo‘limi boshlig‘i

_____ F.Olimova
“ ” _____ 2022-yil

Filologiya va chet tillarni o‘qitishni
rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i _____

B. Tursunaliyeva
“ ” _____ 2022-yil

“Tuzuvchilar”

Chet tili fanlari metodistlari

“ ” _____ 2022-yil

MUNDARIJA

1.	CHET TILLARI TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI	4
2.	CHET TILLARI TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI	5
3	CHET TILI O'QUV FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI	11
4	CHET TILI FANLARI ORQALI O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR.....	12
5	CHET TILLARINI O'QITISHDA BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYALASH.....	13
6	TA'LIM MAZMUNI.....	15
7	CHET TILLAR BO'YICHA BITIRUVCHILAR EGALLAGAN BILIM, KO'NIKMA VA MALAKA DARAJALARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR.....	15
8	CHET TILI BO'YICHA A1 DARAJA BITIRUVCHILARI TAYYORGARLIGI DARAJASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR.....	17
9	CHET TILI BO'YICHA A2 DARAJA BITIRUVCHILARI TAYYORGARLIGI DARAJASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR.....	19
10	CHET TILI BO'YICHA B1 DARAJA BITIRUVCHILARI TAYYORGARLIGI DARAJASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR.....	21
11	CHET TILLARNI O'QITISH MAQSADI.....	24
12	CHET (INGLIZ, NEMIS VA FRANSUZ) TILLAR BO'YICHA O'QUVCHILARGA SINFLAR KESIMIDA QO'YILADIGAN TALABLAR	28
13	CHET TILLARINI O'QITISH MAZMUNI.....	55
14	INGLIZ TILI GRAMMATIK MINIMUMI.....	56
15	INGLIZ TILI FANIDAN TALAFFUZ MINIMUMI.....	62
16	UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTEBLARIDA INGLIZ TILI FANIDAN HAR BIR SINFDAN O'RGANILADIGAN MAVZULAR TAQSIMOTI.....	63
17	NEMIS TILI GRAMMATIK MINIMUMI.....	81
18	NEMIS TILI FANIDAN TALAFFUZ MINIMUMI.....	85
19	UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTEBLARIDA NEMIS TILI FANIDAN HAR BIR SINFDAN O'RGANILADIGAN MAVZULAR TAQSIMOTI.....	87
20	FRANSUZ TILI GRAMMATIK MINIMUMI.....	101
21	FRANSUZ TILI FANIDAN TALAFFUZ MINIMUMI.....	109
22	UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTEBLARIDA FRANSUZ TILI FANIDAN HAR BIR SINFDAN O'RGANILADIGAN MAVZULAR TAQSIMOTI.....	112

KIRISH

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti va axborot texnologiyalari taraqqiyoti sharoitida chet tillarni o'rganishga ehtiyoj kuchaydi. Bugungi kunda dunyo tillarini biladigan va boshqa madaniyatlarni yaxshi tushuna oladigan fuqarolikni shakllantirish millat muvaffaqiyati uchun juda muhim sanaladi. Jahon mamlakatlarining global darajada taraqqiyoti iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy xabardorlik bilan uzviy bog'liq. Lingvistik va madaniy tushunchalarga ega bo'lish va dunyo tillarini o'rganish bilan bog'liq tushunchalar XXI asrda global hamjamiyat va savdo-iqtisodiy sohada faoliyat yuritadigan insonlar uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqlarni bir-biridan ajratib turuvchi geografik chegaralar endilikda katta to'siq emas, balki davlatlar o'zaro bog'liqligi kuchayib, turli millat va madaniyatlardan maqsadli ravishda foydalana oladigan hamda bir nechta tillarni o'zlashtirgan fuqarolar uchun ta'lim va karera imkoniyatlarini kengaytirib bormoqda.

Shularni hisobga olgan holda, uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarini o'qitishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, 2012-yil 10-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, chet tilni barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfidan boshlab ommaviy tarzda o'rganish joriy etildi. Bundan tashqari Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgustdagi 701-sonli "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PF 5538-sonli "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonida ham har bir o'quvchining bugungi ko'p madaniyatli dunyoda raqobatlasha oladigan fuqaro sifatida tarbiyalashda chet tillarini bilish ko'nikmasi muhim ekanligi alohida ta'kidlangan. Shu nuqtayi nazardan, umumiy o'rta ta'limda chet tillarni o'qitishni samarali yo'lga qo'yish bugunning dolzarb vazifasi sanaladi.

Chet tilda nutqiy faoliyat yuritish o'quvchi shaxsini shakllantirishga yo'naltiriladi, ya'ni o'rganilayotgan til sohibi yaratgan madaniy merosni o'zlashtirishga erishiladi. Tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv jarayonida o'quvchi oldin egallagan ijtimoiy, madaniy, lisoniy, emotsional tajribasini boyitadi. Muloqotdoshlarning bir-birini tushunishlari chet tilini bilishning asosiy mezonini hisoblanadi.

Ta'lim tizimidagi boshqa fanlardan chet tilning farqi bir paytning o'zida, uning ham ta'lim maqsadi, ham ta'lim vositasi ekanligida namoyon bo'ladi. Chet tilida nutqiy malakalar (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozish)ni egallash ta'limdan ko'zlanadigan maqsad bo'lishi bilan birga, o'rganilayotgan til yangi va foydali axborot olish, yetkazish vositasi maqomini ham oladi. O'quvchi faqat muloqotdosh bo'lib emas, balki axborot sohibi sifatida ham

o'rganilayotgan tildan foydalanadi. Tilni o'rganish chog'ida o'quvchi lingvistik bilimlar to'plash bilan emas, balki nutqiy va madaniy malakalarini oshirish bilan mashg'ul bo'ladi. Kommunikativ faoliyat ko'rsatish, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo'ljallangan integrativ yondashuv asosida chet tili o'rgatiladi. Chet tilini o'qitish kommunikativ yondashuv asosida va o'quvchiga markazlashgan holda amalga oshiriladi. Bunda madaniyatlararo taqqoslash orqali o'zlikni tanish, tanqidiy va tahliliy fikrlash, o'zida turli hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish o'rgatiladi.

CHET TILLARI TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI

1. UMUMIY QOIDALAR

Ushbu konsepsiya O'zbekiston Respublikasida umumta'lim fanlari dasturlarini amalga oshiradigan muassasalarda (keyinchalik – ta'lim muassasalari) chet (ingliz, nemis, fransuz) tillarini o'qitishning asosiy masalalari, tayanch tamoyillari, maqsad, vazifalari hamda ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini belgilaydi, shuningdek, sohaga oid kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi. Chet tillari fanini o'qitishni rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Ushbu konsepsiya xalq ta'limi tizimida chet tillari o'qitishni rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini belgilab beradi.

Bunda:

zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga muvofiqlikni ta'minlash maqsadida umumta'lim davlat ta'lim standartlari tizimini muntazam ravishda takomillashtirish;

bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lmagan fanlar asosida tuzilgan o'quv dasturidan bosqichma-bosqich voz kechish va o'quv fanlari sonini optimallashtirish;

ta'lim sohasi rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim me'yorlarini belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda takomillashtirish;

tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan chet tillari umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish;

chet tillari faninihg davlat ta'lim standarti talablarining ta'lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablariga muvofiqligini ta'minlash;

chet tillari fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini amaliyotga tatbiq etish;

chet tillari fani mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayonini individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

chet tillari fanini umumta'lim fanlari bilan o'zaro integratsiyasi va o'quvchilarning chet tilini real hayotda ishlata olish (real life communication)ga yo'naltirish ishlarini tashkil etish;

chet tillari fanining mazmunini, mustaqil hayotda qo'llash imkoniyati bo'lgan chet tili fani savodxonligini, XXI asr ko'nikmalarini, ya'ni tanqidiy va kreativ fikrlash, sotsiologiyistik va pragmatik kompetensiyalarini shakllantirish;

xalq ta'limi tizimida chet tillarini o'qitishda inklyuziv ta'lim dasturlarini yetarli darajada rivojlantirish;

imkoniyati cheklangan bolalarga chet tillarini o'qitishda inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish;

2. CHET (INGLIZ, NEMIS, FRANSUZ) TILLARI PREDMETINING TA'LIM TIZIMIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

O'zbek xalqi ilm-fan taraqqiyotiga tamal toshini qo'ygan va fors-tojik, arab tillarida ijod qilgan olim-u ulamolar avlodlari sifatida qadim-qadimdan nafaqat o'z ona tili, balki dunyo tillarini o'rganishga katta qiziqish bildirib keladi. Bugungi kunda ham chet tillari predmeti davlat ta'lim tizimida insonning shaxs sifatida shakllanishi, kamol topishi va dunyoviy bilimini oshirishda muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun davlat tomonidan chet tillarini o'qitish tizimi uzluksiz takomillashtirib kelinmoqda. Buning natijasida O'zbekiston yoshlarini dunyoning nufuzli universitetlari talabalari, xalqaro olimpiadalar g'oliblari hamda ko'plab sohalarning yetakchilari sifatida ko'ra olyapmiz. Kelajakda ham bu sa'y-harakatlarni davom ettirish asnosida yoshlarimizni O'zbekiston Respublikasining umumjahon sivilizatsiyasidagi o'rnini ko'tarish va yanada rivojlantirishga hissa qo'sha oladigan kadrlarga aylantirishga erishish davlat ta'lim standartining asosiy maqsadlaridan biri bo'lishi lozim.

3. KONSEPSIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI

Chet tillari ta'limini rivojlantirish konsepsiyasining asosiy maqsadlari:

O'zbekiston Respublikasida ta'limning barcha bosqichlarida chet tili o'qitilishining uzviyligini ta'minlash hamda kelajak avlodni ko'p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun chet tilida kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish;

ta'lim va tarbiya jarayonini uyg'unlashtirib, o'quvchilarda boshqa millat va elatlarning madaniyati, urf odatlari va an'analariga hurmat tuyg'usini shakllantirish;

ular da real hayotdagi voqea-hodisalarga munosabat bildirish, kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatining rivojlantirilishidan iborat.

Chet tillari ta'limini rivojlantirish konsepsiyasining maqsadini amalga oshirish vazifalari

XXI asrning tez, o'zgaruvchan va doimiy yangilanib boradigan axborot va texnika manbaini inobatga olgan holda chet tillarini o'qitish tizimi moslashuvchanligini, yangilanib borishini ta'minlash hamda fan va texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirishi;

ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmani shakllantirish;

ta'limning barcha bosqichlarida chet tillari o'qitilishining uzviyligini va yondosh fanlararo bog'liqlikni ta'minlash;

fan mavzularining mazmunan yaxlitligini, mantiqiy ketma-ketlik va izchilligini, o'quvchi yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda faktlar, tushunchalar va qoidalarning tushunarli bayon qilinishi;

chet tillari fanining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlarini, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqish hamda baholashning barcha bosqichlarida o'quvchining Davlat ta'lim standarti asosida olgan bilim, ko'nikma va malakasiga mos talab belgilash;

o'quvchilarda real hayotdagi voqea-hodisalarga munosabat bildirish hamda kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish orqali ularning o'z fikrlarini chet tillarida erkin bayon eta olishlarini, o'rganilayotgan tilda taqdim etilgan ma'lumotni anglay olish ko'nikmalarini shakllantiruvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni dunyoning rivojlangan mamlakat fuqarolari bilan raqobatlasha oladigan komil inson sifatida tarbiyalash tizimining bir bo'lagiga aylantirish.

4. KONSEPSIYANI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

UMUMIY MASALALAR

Quyidagilar Konsepsiyani amalga oshirish mexanizmi hisoblanadi.

Huquqiy asoslari - shaxs tarbiyasiga oid milliy normativ-huquqiy bazani mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq shakllantirish;

Amalga oshirish tizimi - vazirlik va idoralar, muassasalar, davlat hamda nodavlat korxona va tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;

Tashkiliy-boshqaruv asoslari:

konsepsiyani amalga oshirishning kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;

ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlash, o'rganish va ularni ommalashtirish, rag'batlantirishni tashkil etish;

konsepsiya samaradorligini monitoring qilish;

mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash;

"Filologiya" yo'nalishida dars beradigan pedagoglarni tayyorlash; ("Ingliz tili", "Nemis tili", "Fransuz tili" mutaxassisligiga) qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini modernizatsiya qilish;

Ilmiy-metodik asoslari:

shaxsning ijtimoiylashuvi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishlariga oid ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish;

davlat ta'lim standartlari talablari asosida o'quvchilar tomonidan bilim, ko'nikma va malakalar to'liq o'zlashtirilishiga erishish;

chet tili fani o'quv-metodik majmualarini, shu jumladan, ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlarini takomillashtirish;

chet tili fani darsliklarini yaratishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish.

Til ta'limini yangilash asoslari:

Ushbu konsepsiyada chet tili ta'limida lingvistikaga oid nazariy bilimlarning amaliy tabiatli nutqiy hamda pragmatik kompetensiyalar ustida ishlashga yo'naltirilishi va unga bo'ysundirilishi yetakchi tamoyil sifatida belgilanadi.

Chet tili ta'limida xorijiy tajribalarga ijodiy va tanqidiy fikrlashga hamda XXI asr ko'nikmalariga tayaniladi va mamlakatimizda vujudga kelgan ilg'or tajribalar o'rganilib, umumlashtirilgan holda amaliyotga tatbiq etiladi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasi ta'minlanadi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlari tashkil etiladi.

Metodik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ta'lim oluvchilarning mustaqil ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ustuvorlik kasb etgan majburiy hamda variativ komponentlar uyg'unligini nazarda tutuvchi o'quv dasturlari asosida darsliklarning yangi avlodi yaratiladi.

O'quv materiallarini nazariy hamda amaliy o'zlashtirishda yordam beradigan metodik ta'minot: yordamchi o'quv vositalari (lug'atlar, qomuslar, matnlar to'plami, multimedia, mobil ilovalar va h.) yaratiladi.

Amaliyotdagi mavjud muammolar metodik tadqiqotlar hamda ilmiy izlanishlar natijalariga tayanilgan holda hal etiladi.

Chet tili o'quv predmeti bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi uchun baholovchi nazorat materiallarini takomillashtirish davom ettiriladi.

O'zlashtiriladigan bilim va malakalar:

O'quv materiallari vositasida o'zlashtiriladigan bilim va malakalar quyidagilardan iborat:

chet tilining milliy tabiati, ijtimoiy hodisa ekanligi, uning qurilishi, vazifalari va taraqqiyoti to'g'risidagi zarur bilimlarni egallash;

nutqiy faoliyat turlarini (tinglash, o'qish, gapirish, yozish) integratsiya qilgan holda yaxlit o'zlashtirish, muloqotning barcha sohalarida nutq malakalaridan to'g'ri foydalanishni bilish;

og'zaki va yozma nutq savodxonligiga erishish;

chet tilidagi ijtimoiy hayotning turli qirralarini aks ettiradigan, shuningdek, ta'lim oluvchilarning yosh, gender va etnomadaniy xususiyatlarini inobatga olib yaratilgan matnlarni tushunish va munosabat bildira olish;

axborot-kommunikativ vosita va resurslari (chop etiladigan va elektron lug'atlar, tarjimon dasturlari, imloviy nazorat dasturi, qidirish tizimlari va b.)dan foydalanish malakasini egallash;

yakuniy davlat attestatsiyasida bitiruvchining nafaqat yozma, ayni paytda, og'zaki nutqini ham baholanishiga tayyorlik darajasiga erishish.

Chet tillari fani o'qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish

Chet tili o'qituvchilari ish faoliyati sifat va samaradorligini oshirishda quyidagilar muhim sanaladi:

chet tili o'qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yangi shakl va mazmundagi muqobil tizimini yaratish;

pedagog xodimlarni tayyorlash hamda qayta tayyorlash va malakasini oshirishda nazariy bilimlar berish bilan birga asosiy e'tiborni nutqiy kompetensiyalarni o'zlashtirish, kreativ va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda ularni o'qitish bo'yicha kasbiy tayyorgarlik darajasiga qaratish;

chet tillari sohasidagi ilg'or tajriba, pedagogik texnologiya, tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, targ'ib qilish, bunda alohida o'rnak ko'rsatayotgan pedagoglarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;

o'qituvchilarning bilim va malakasini tizimli oshirib borish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan o'qish, malaka oshirish va o'qitishning samarador mexanizmlarini ishlab chiqish hamda tizimli ravishda takomillashtirib borish;

chet tili fani o'qituvchilari uchun kasbiy tayyorgarlikni oshirishga yordam beradigan o'quv, metodik adabiyotlar hamda didaktik materiallarni davomli tarzda tayyorlab borish va yetkazib berish.

davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan kompetensiyalar va o'quv jarayonini interaktiv boshqarish mahorati tamoyillariga asoslangan pedagog kadrlarning malakasini oshirish;

5. KONSEPSIYANI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali chet tili fanini umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitishni rivojlantirishda quyidagi natijalarga erishish nazarda tutilmoqda:

konsepsiya umumiy o'rta ta'limning malaka talablari (DTS)da belgilangan talablar uchun asos bo'ladi;

konsepsiyada belgilangan maqsad va vazifalarni keng amaliyotga joriy etish o'quvchi-yoshlarning intellektual rivojlanishiga samarali ta'sir etadi;

ularda kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, real hayot muloqotiga tayyorlash va XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi;

chet tili fanini o'qitish bosqichlari, o'quv fani bo'yicha ta'lim mazmuni va malaka-talablari me'yorlari aniqlashtiriladi;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida, zamonaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanib chet tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishiladi;

ta'lim muassasalarida chet tilini o'rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimi yo'lga qo'yiladi, barcha fan sohalariga oid ilmiy tadqiqotlarda chet tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzi yanada ortadi;

o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

o'quvchilarda ta'lim olishda kuchli motivatsiyani shakllantirish;

darsliklar yaratishda xilma-xillikni ta'minlash;

tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirish;

darsliklar sifatini oshirish, xorijiy o'quv qo'llanmalarini qo'shimcha yoki muqobil o'quv materiallari sifatida qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish;

xorijiy til fanlarini chuqur o'rganishga mo'ljallangan didaktik materiallar va multimedia mahsulotlarining yangi avlodlari tayyorlanadi.

CHET TILI O'QUV FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Umumiy o'rta ta'limda chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi o'rganuvchilarning ko'p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun chet tilida kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdan iborat.

Chet tili kommunikativ kompetensiyasi – o'rganilayotgan chet tili bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo'llash qobiliyatidir.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilarida chet tili fanlari bo'yicha quyidagi umumiy kompetensiyalar rivojlantiriladi.

LINGVISTIK KOMPETENSIYA

o'z fikrini imlo va grammatika qoidalariga rioya qilgan holda yozma shaklda bayon qiladi;

xalq maqollari, hikmatli so'zlar ma'nosini tushungan holda o'z nutqida qo'llaydi, matn tuzishda yordamchi so'zlardan o'rinli foydalanadi;

nasriy asarlardagi so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini farqlaydi;

o'zining yozma nutqida leksik birliklar tinish belgilaridan o'rinli va to'g'ri foydalanadi, matndagi ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gap shaklida yozadi;

til imkoniyatlaridan foydalanib sodda gaplarni qo'shma gapga aylantiradi;

ish qog'ozlari (ariza, ma'lumotnoma, xat, e'lon, axborot, tavsifnoma, tushuntirish xati, jadval shaklida o'z rezyumesi)ni yozadi;

sodda va murakkab yo'riqnomalarni o'qib tushuntirib bera oladi;

adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat, esse va ijodiy matn (bayon) (2-2,5 sahifa) yozadi;

sodda matnlar mazmunini tushungan holda tarjima qiladi

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA

chet tilidagi tovushlarni to'g'ri talaffuz qiladi, intonatsiya qoidalariga rioya qiladi;

turli uslubdagi matnlarni ifodali o'qiydi, mazmunini anglaydi va og'zaki yoki yozma nutqda qayta ifodalaydi;

notanish matnni ovoz chiqarib, belgilangan tezlikda o'qiydi;

kundalik hayot, ijtimoiy hodisalar, kasb-hunarga oid mavzularda o'z fikrini yozma va og'zaki bayon qiladi;

audiomatnni tinglab, videolavha va rasmlarni ko'rib tushunadi, o'z munosabatini og'zaki hamda yozma shakllarda ifodalab beradi;

asar va ijodkor shaxsi haqida o'zining mustaqil fikrini adabiy talaffuz va imlo me'yorlariga rioya qilgan holda bayon qiladi;



turli vaziyatlarda nutqiy madaniyat qoidalari asosida muloqotga kirisha oladi;

turli janrdagi matnlar mazmunini tushunadi, ulardan namunalarni yoddan aytib beradi;

ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb mavzularga doir xabar va ma'lumotlarni tushunadi, o'z munosabatini bildiradi; lug'at va ensiklopediyalardan foydalanadi;

PRAGMATIK KOMPETENSIYA

o'ziga ishongan holda aniq va xushmuomalalik bilan rasmiy yoki norasmiy suhbatlarda va vaziyatlarda tegishli shaxs(lar)ga mos ravishda fikrini ifoda etishi mumkin;

nutq tezligi yuqori bo'lgan suhbatlarga bir oz qiyinchilik bilan kirishib o'z fikrini bayon eta oladi;

vaziyatlarda o'zini to'g'ri ifoda etishi va nutqida grammatik qoidalarga rioya qilishi mumkin;

aytgan so'zlarini va uni ifoda etish vositalarini vaziyatga, qabul qiluvchiga va uslubga moslashtirishi mumkin;

tildan mos ravishda foydalanib munozaraga munosib aralashishi mumkin;

muloqotni boshlashi, kerak bo'lganda o'z navbatini olishi va lozim bo'lsa suhbatni tugatishi mumkin, ammo u buni har doim ham ravonlik bilan qilmasligi mumkin;

tanish yoki shaxsiy qiziqishlar haqidagi mavzularda yuzma-yuz suhbatni boshlashi, davom ettirishi va tugatishi mumkin;

fikrlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashda turli xil bog'lovchi so'zlardan samarali foydalanishi mumkin; so'zlarni aniq, izchil nutqqa bog'lash uchun cheklangan miqdordagi bog'lovchi so'z va birikmalardan foydalanishi mumkin, ammo uzun suhbat/muloqot/monolog/taqdimotlarda "uzilish" bo'lishi mumkin;

qisqa va sodda elementlar ketma-ketligini, fikrlarni bir-biriga bog'lashi mumkin.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLAY OLISH SAVODXONLIGI

bilim va ko'nikmalarini axborot yaratish, raqamli texnologiyalarni qo'llay olish, muloqot vositalari va internet tarmog'idan to'g'ri va maqsadli foydalana olish, texnologik vositalarni boshqara olish, texnologik vositalarga baho berish va ma'lumot yaratishda qo'llay olishi.

raqamli texnologiyani tadqiqot qilish, aniqlangan ma'lumotlarni yig'ish, ularning qay darajada ishonchliligini aniqlash va uni yetkazish, mualliflik huquqiga ega bo'lgan ma'lumotlarni filtrlay olish.

CHET TILI FANLARI ORQALI O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA

TAVSIYALAR

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Filologiya fanlari bloki yo'nalishidagi fanlar orqali o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari asosida o'zini o'zi mustaqil rivojlantirish, egallagan bilim, ko'nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Jumladan, kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda XXI asr ko'nikmalaridan foydalangan holda o'quvchilarga xorijiy tillarni o'qishni, yozishni, tinglab tushunishni, tanqidiy va ijodiy fikrlarini og'zaki hamda yozma ravon bayon qilishlarini turli xil uslublar orqali o'rgatish lozim. Bunda zamonaviy o'qitish metodikasi va innovatsiya g'oyalari orqali o'qitish tavsiya qilinadi.

Fanlarni o'qitishda **axborot bilan ishlash kompetensiyasini** samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o'quvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, Vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish, yangiliklarga intilish va o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, tanqidiy va tahliliy fikrlashga, jamiyatda ro'y berayotgan progressiv va innovatsion o'zgarishlardan xabardor bo'lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o'rgatish zarur.

Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda fuqarolik burch, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo'lish hamda badiiy va san'at asarlarini tushunish, shuningdek, ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat.

CHET TILLARINI O'QITISHDA BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYALASH

Chet tillarini bilish bugungi globallashtirilgan dunyoda o'quvchilarni shaxs sifatida shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi. Chet tillarni o'rganish asnosida o'quvchilarda umuminsoniy qadriyatlar, atrofni va jamiyatni tahlil qilish ko'nikmasi, raqobatlasha olishga ishonch, madaniyatlar va an'analarga hurmat hissi, ijodkorlik, yaratuvchanlik va muammoli vaziyatlarda o'ziga ishonch hamda o'z yurti, xalqi va tarixi bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantiradi. Shu sababli, yurtimiz ta'lim tizimi g'arb va sharq tillari o'qitilishiga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Bu jarayonni chuqur anglagan dunyoning rivojlangan mamlakatlarida chet tilini boshqa fanlar bilan o'zaro integratsiya qilib o'qitishda CLIL

metodikasidan keng foydalanilmoqda. CLIL - (Content and Language Integrated Learning) mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'rganish bo'lib, ushbu metodikaga ko'ra o'quvchilar Matematika, Kimyo, Biologiya, Fizika, Informatika, Adabiyot, Tarix kabi fanlarga oid mavzularni chet tilida o'rganishlari orqali ham ushbu fanlarga doir bilimlarini mustahkamlashadi, ham chet tilini qo'llashni o'rganishadi. Mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'rganish bu bir vaqtning o'zida yangi mavzuni ikkinchi til orqali o'rganish yondashuvidir. Masalan, o'quvchilar chet tilida o'qitilishi mumkin bo'lgan mavzular orqali nafaqat fan haqida ma'lumot olishadi, balki tegishli lug'at va til ko'nikmalariga ham ega bo'lishadi.

Chet tili va matematika. Matematika nuqtai nazaridan, fikrlash va sezgi talab qiladigan turli xil yondashuvlarni qo'llagan holda, kundalik amaliy hayotda matematik bilim va ko'nikmalarni qo'llash qobiliyati va xohishini shakllantirish kerak. Maktab fani sifatida chet tilining o'ziga xos xususiyati uning fanlararo bog'liqligidir.

Matematikadan o'quv matni va matnli topshiriqlarni tushunishga chet tili darslarida rivojlangan o'qish ko'nikmalari yordam beradi. Demak, raqamlarni bilish matematik savodxonlikni o'zlashtirish uchun muhim element bo'lib, og'zaki va yozma nutqni yaxshi boshqarish matematik matnlarni to'g'ri tushunish va to'g'ri tuzishga yordam beradi.

Chet tilini Informatika fani bilan bog'lash bir qator integral darslarni tashkil etadi. Bu darsda o'quvchilar Microsoft Power Point taqdimotlari

qoidalarini o'zlashtirishlari va o'quv yilida o'rganilgan mavzularda chet tilida ijodiy dizayn ishlarini tayyorlashlari kerak bo'ladi.

Tabiiy fanlar bo'yicha o'quv va axborot matnlarini tushunish uchun o'qish va matn bilan ishlash qobiliyati ham talab qilinadi. O'quvchi atamalarni, tabiiy hodisalar va obyektlarning nomlarini talaffuz qilishni o'rganishi kerak.

Chet tilini Raqamli texnologiya fani bilan bog'lash, o'quvchilarni tez o'zgaruvchan texnologiyalar dunyosida faol qatnashishga tayyorlaydi. Obyektlarning qanday yaratilganligi va yasalganligi haqida bilish, o'quvchilarga ularning atrofidagi dunyoni anglashga yordam beradi. O'z mahsulotlarini loyihalashtirish va ishlab chiqarish orqali o'quvchilar amaliy ishlarni o'rganadilar, masalan, qanday ishlash va foydali ko'rinishga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish, fikrlash va ishlash usullari, g'oyalarni ishlab chiqish, muammolarni hal qilish va jamoa bo'lib ishlashda chet tilini ishlata olishlari bu ularning dunyo bozorlarida yetakchilik qilishga undaydi.

Geografiya tabiiy va insoniy olam haqidagi savollarga javob beradi. Dunyo bo'ylab joylar va muhitlar haqidagi bilimlarni, xaritalarni tushunishni va sinf ichida ham, undan tashqarida ham muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Tarix fanida o'quvchilar O'zbekiston tarixini va dunyo o'tmishini o'rganadilar. Chet tilini tarix fani bilan bog'lab o'qitish natijasida o'quvchilar

rivojlangan asosiy sohalar: xronologik voqealar, odamlar va o'tmishdagi o'zgarishlar haqida bilish va tushunish, tarixiy talqin va so'rov hamda o'z topilmalarini tartibga solish va yetkazishda chet tili orqali aytib berish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ikkala asosiy bosqichda ham o'quvchilar mahalliy tarixni o'rganadilar.

CLIL metodi orqali o'quvchilarni XXI asr ko'nikmalari, shu jumladan, tanqidiy fikrlash, ijodiy bo'lish, muloqot qilish, hamkorlik qila olish va raqamli savodxonlik qobiliyatlarini rivojlantirishga undaydi.

TA'LIM MAZMUNI

Ta'lim mazmuni umumiy o'rta ta'limning fanlar bo'yicha o'quv dasturlariga kiritilgan mavzulardan iborat. O'quv materiali umumiy o'rta ta'limning barcha bosqichida uzviylik, uzluksizlik va davriylikni ta'minlaydi.

Har bir sinf kesimida mazkur standart mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv dasturlari va darsliklar ishlab chiqishda minimum sifatida foydalaniladi.

CHET TILLAR BO'YICHA BITIRUVCHILAR EGALLAGAN BILIM, KO'NIKMA VA MALAKA DARAJALARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilarning chet tillar bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malaka darajalariga qo'yiladigan talablar ta'lim mazmuniga muvofiq ishlab chiqilgan, umumiy o'rta ta'limning barcha bosqichlari bo'yicha uzviy bo'lib, nutq ko'nikma va malakalarning deskriptorlari "can do" mazmunida tasvirlangan hamda kerakli joylarda grammatika, leksika, fonetika va orfografiya bilan to'ldirilgan. Xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida nutq ko'nikma va malakalarning deskriptorlari "Chet tillarni bilishning Umumyevropa tizimi"ga o'zaro bog'liq holda olindi hamda ular sodda va tushunarli shaklda berildi. Bitiruvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malaka darajalariga qo'yiladigan talablardan kelib chiqib, deskriptorlar

— har bir darajani to'liq egallanganlikni ta'minlash uchun umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quv dasturlari va darsliklarni ishlab chiqishda tuzuvchilar tomonidan inobatga olinishi,

— O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilarining davlat attestatsiyasi uchun baholash mezonlarini ishlab chiqishda nazarda tutilishi lozim.

Umumiy oʻrta taʼlim maktabida chet til oʻqitish sharoitini hisobga olgan holda “Chet tilni egallash darajalarining Umumyevropa sistemasi”ga asosan, umumiy oʻrta taʼlim maktablarida chet tillarining quyidagi darajalari oʻqitiladi.

Bitiruvchilar	Standart darajasi	Daraja nomlanishi
Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining boshlangʻich 6-sinf bitiruvchilari	A1	Chet tilini oʻrganishning boshlangʻich darajasi
Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	A2	Chet tilini oʻrganishning tayanch darajasi
Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 11-sinf bitiruvchilari	B1	Chet tilini oʻrganishning mustaqil boshlangʻich darajasi

CHET TILI BO'YICHA A1 DARAJA BITIRUVCHILARI TAYYORGARLIGI DARAJASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

LINGVISTIK KOMPETENSIYA	
I. NUTQIY KOMPETENSIYA	
Tinglab tushunish	
CHT.A1.N.T.1	sodda yo'riqnomalarni tushuna oladi va ularga amal qila oladi;
CHT.A1.N.T.2	sodda savollar va gaplarni tushuna oladi;
CHT.A1.N.T.3	sodda she'rlar, hikoyalar, qo'shiqlarni tushuna oladi;
CHT.A1.N.T.4	tanish kontekstlarda sodda autentik nutqni tushuna oladi
Gapirish / Suhbatda ishtirok etish	
CHT.A1.N.G.1	ma'lumot so'ray va ma'lumot bera oladi;
CHT.A1.N.G.2	yordam so'rab murojaat qila oladi (dialog)
CHT.A1.N.G.3	sodda savol-javob qila oladi (dialog);
CHT.A1.N.G.4	yashash joyi, oila, do'stlari va tanishlari haqida gapira oladi (monolog);
CHT.A1.N.G.5	o'zini tanishtira oladi, yoqtirgan va yoqtirmagan narsalari haqida gapira oladi (monolog);
CHT.A1.N.G.6	tanish mavzuda juda qisqa taqdimotlar qila oladi (monolog).
O'qib tushunish	
CHT.A1.N.O'.1	tanish mavzularda ma'lumot beruvchi matnlarning asosiy mazmunini tushuna oladi;
CHT.A1.N.O'.2	joy yoki insonlar tasvirlangan qishacha matnni (zarur hollarda ko'rgazmalardan foydalangan holda) tushuna oladi;
CHT.A1.N.O'.3	sodda xabarlarni (masalan, oddiy xatlar, elektron xatlar) tushuna oladi;
CHT.A1.N.O'.4	sodda yozma yo'riqnoma yoki ko'rsatmalarni tushuna oladi va ularga amal qila oladi.
Yozish	
CHT.A1.N.Y.1	shaxsiy sodda xabarlarni (tabriklar, qaydlar, elektron xatlar) yoza oladi;
CHT.A1.N.Y.2	shaxsiy ma'lumotlar (ism-sharif, yashash manzili va hokazo) bilan sodda anketani to'ldira oladi;
CHT.A1.N.Y.3	sodda she'r va hikoyalar yoza oladi.
II. TIL KOMPETENSIYASI	
Fonetika kompetensiya	
CHT.A1.T.F.1	chet tilining barcha tovushlarini aniq talaffuz eta oladi;
CHT.A1.T.F.2	so'z va gap urg'usini qo'ya oladi;
CHT.A1.T.F.3	kommunikativ vaziyatlarda intonatsiya modellarini farhlay biladi va ulardan foydalana oladi.
Leksik kompetensiya	
CHT.A1.T.L.1	o'zlashtirilgan leksik vositalarni kontekst (matn)da qo'llay oladi;
CHT.A1.T.L.2	mavzuga oid sodda so'zlarni kommunikativ vaziyatlarda qo'llay oladi;

CHT.A1.T.L.3	ba'zi baynalmilal so'zlar va turdosh so'zlarni farqlay oladi hamda ularni qo'llay oladi.
Grammatik kompetensiya	
CHT.A1.T.G.1	kommunikativ vaziyatlarda sodda grammatik va sintaktik tuzilmalarni qo'llay oladi;
CHT.A1.T.G.2	so'z va so'z birikmalarini "va" bog'lovchisi bilan bog'lay oladi;
CHT.A1.T.G.3	fe'l shakllari va sodda payt ravishdoshlaridan foydalangan holda gaplarni to'g'ri bayon qiladi, hikoyalar hamda voqealarni to'g'ri ketma-ketlikda ta'riflay oladi.

RAQAMLI SAVODXONLIK	
CHT.A1.R.1	Ommaviy axborot vositalaridagi oddiy onlayn e'lonlar va ularning havolalariga qisqa, ijobiy va salbiy munosabatini bildirish uchun leksik iboralar va sodda so'z birikmalaridan foydalana oladi.
CHT.A1.R.2	Kompyuter dasturidagi eng muhim va sodda kalit so'zlarni anglay oladi Masalan: "Print", "Save", "Copy", "Delete".
CHT.A1.R.3	Tarjimon vositalar yordamiga tayanib, sevimli mashg'uloti, yoqtirgan/yoqtirmagan narsalari haqida juda sodda xabarlar va o'zining havolalarini qoldira oladi.
CHT.A1.R.4	Oddiy leksik iboralar va emojilardan foydalanib online havolalar qoldira oladi.
CHT.A1.R.5	Shaxsiy ma'lumotlarini taqdim etadigan oddiy onlayn so'rovnomani to'ldira oladi.
CHT.A1.R.6	Rasmi bilan ko'rsatilgan mahsulotlar ro'yxatidan online xarid uchun tanlovni amalga oshira oladi.

CHET TILI BO'YICHA A2 DARAJA BITIRUVCHILARI TAYYORGARLIGI DARAJASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

LINGVISTIK KOMPETENSIYA	
I. NUTQIY KOMPETENSIYA	
Tinglab tushunish	
CHT.A2.N.T.1	O'z ehtiyojlari va qiziqishlariga bevosita bog'liq bo'lgan gap va iboralarni tushuna oladi;
CHT.A2.N.T.2	Biror yerga borish bo'yicha sodda yo'riqnomalarni tushuna oladi;
CHT.A2.N.T.3	Sodda xabarlar va e'lonlardagi asosiy ma'nolarni tushuna oladi.
Gapirish (Dialog)	
CHT.A2.N.G.1	To'g'ri ma'lumot ola biladi va bera oladi;
CHT.A2.N.G.2	Salomlasha oladi va murojaat qila oladi; taklif, tavsiya qila oladi va taklifga javob bera oladi; uzr so'rashning sodda kundalik shakllarini ishlata oladi;
CHT.A2.N.G.3	Qisqa muloqotda ishtirok eta oladi;
CHT.A2.N.G.4	Sodda iboralardan foydalanib tanish mavzuda o'z fikrini ifoda eta oladi;
CHT.A2.N.G.5	Sodda yumushlar (masalan, chiptalar sotib olish, xarid qilish, oshxonada taom buyura olish)ni amalga oshira oladi;
CHT.A2.N.G.5	Tushunmaganligini bildiradi.
Gapirish (Monolog)	
CHT.A2.N.G.6	Odamlar, yashash yoki ish joyi sharoitlari, kundalik ishlar, yoqtirgan/ yoqtirmagan narsalar va boshqalarni sodda qilib tasvirlay oladi yoki taqdimot qila oladi;
CHT.A2.N.G.7	Sodda iboralar bilan odamlar, joylar va buyumlarni tasvirlay oladi.
O'qib tushunish	
CHT.A2.N.O'.1	Juda qisqa sodda autentik va yarim-autentik matnlarni tushuna oladi;
CHT.A2.N.O'.2	Qisqa shaxsiy sodda xabarlar va xatlarni tushuna oladi;
CHT.A2.N.O'.3	Jamoat joylaridagi umumiy belgilar va e'lonlarni tushuna oladi;
CHT.A2.N.O'.4	Sodda yozma ko'rsatmalarni tushuna oladi;
CHT.A2.N.O'.5	Ro'yxatlar, veb saytlar, qo'llanmalar va boshqalardagi maxsus ma'lumotlarni qidirib topa oladi.
Yozish	
CHT.A2.N.Y.1	Sodda, qisqa xat va xabarlar yoza oladi (masalan, minnatdorchilik bildirish, uzr so'rash xatlari);
CHT.A2.N.Y.2	Anketani turli shaxsiy ma'lumotlar bilan to'ldira oladi (ism-sharifi, manzili, telefon raqami, millati, ota-onasi bilan ulanish haqida ma'lumotlar va hokazo);
CHT.A2.N.Y.3	Kundalik turmush haqida yoza oladi;
CHT.A2.N.Y.4	Sodda she'rlar yoza oladi.

II. TIL KOMPETENSIYASI	
Fonetik kompetensiya	
CHT.A2.T.F.1	Chet tilining barcha tovushlarini aniq talaffuz qila oladi;
CHT.A2.T.F.2	So'z va gap urg'usidan to'g'ri foydalana oladi;
CHT.A2.T.F.3	Kommunikativ vaziyatlarda intonatsiya modellaridan to'g'ri foydalana oladi va ularni farqlay oladi.
Leksik kompetensiya	
CHT.A2.T.L.1	O'zlashtirilgan leksik birliklarni kontekstda qo'llay oladi;
CHT.A2.T.L.2	Mavzuga oid sodda suzlarni kommunikativ vaziyatlarda qo'llay oladi;
CHT.A2.T.L.3	Ba'zi baynalmilal va o'zlashgan so'zlarni taniy oladi va ularni qo'llay oladi;
CHT.A2.T.L.4	So'z yasashning turli yo'llarini farqlay oladi (qo'shma so'zlar, prefikslar va suffikslar).
Grammatik kompetensiya	
CHT.A2.T.G.1	Kommunikativ vaziyatlarda asosiy grammatik va sintaktik tuzilmalarni qo'llay oladi;
CHT.A2.T.G.2	So'z birikmalari va qo'shma gaplarni "ammo", "va", "chunki" kabi sodda bog'lovchilar bilan bog'ay oladi;
CHT.A2.T.G.3	Fe'l shakllari va sodda payt ravishlaridan foydalangan holda bayon qila oladi va hikoyalarni gapirib berishda voqealarni to'g'ri ketma-ketlikda ifodalay oladi.

RAQAMLI SAVODXONLIK	
CHT.A2.R.1	Tili o'rganilayotgan mamlakatdagi tengdoshlari bilan elektron ijtimoiy ilovalar orqali matn, audio va video muloqotlariga kirisha oladi.
CHT.A2.R.2	O'z ehtiyoji uchun internet kutubxonasidan o'rganayotgan tilda ma'lumotlar izlay oladi va foydalana oladi.
CHT.A2.R.3	Grafikalar va diagrammalar shaklida o'z xulosalari haqida taqdimot qila oladi.
CHT.A2.R.4	Boshqalarning sodda tilda yozilgan onlayn postlariga hayrat, qiziqish va befarqlik hissiyotlarini sodda tarzda ifodalash orqali munosabat bildiradi.
CHT.A2.R.5	Sodda loyihalarni jamoa bilan online bog'langan holda amalga oshira oladi.
CHT.A2.R.6	Kompyuter imkoniyatlaridan o'rganilayotgan tilda sodda taqdimotlar, hisobotlar va xulosalar yaratishda foydalana oladi va kerakli manzilga jo'nata oladi.

CHET TILI BO'YICHA B1 DARAJA BITIRUVCHILARI TAYYORGARLIGI DARAJASIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

LINGVISTIK KOMPETENSIYA	
I. NUTQIY KOMPETENSIYA	
Tinglab tushunish	
CHT.B1.N.T.1	Ommabop tanish mavzulardagi aniq normativ nutqning asosiy Ma'nolarini tushuna oladi;
CHT.B1.N.T.2	Kasb-hunarga oid mavzulardagi aniq normativ nutqning asosiy ma'nolarini tushuna oladi;
CHT.B1.N.T.3	Batafsil yozilgan yo'riqnomalar yoki ko'rsatmlarni tushuna oladi va ularga amal kila oladi;
CHT.B1.N.T.4	Shaxsiy qiziqish yoki kasbga oid kundalik voqealar va dasturlar haqidagi teleradio yangililari sekin, biroq ravon gapirilganda ularning asosiy mazmuni va g'oyasini tushuna oladi;
CHT.B1.N.T.5	Tanish mavzudagi muhokamaga kirisha oladi.
Gapirish (Dialog)	
CHT.B1.N.G.1	Sayohat mobaynida yoki ish joyida vujudga kelishi mumkin bo'lgan aksariyat vaziyatlarda muloqot qila oladi;
CHT.B1.N.G.2	Tanish, shaxsiy qiziqishlarga oid yoki kundalik mavzularda tayyorgarliksiz suhbatga kirisha oladi;
CHT.B1.N.G.3	Ham ommabop, ham kasb-hunarga oid masalalar bo'yicha ma'lumot oladi va bera oladi hamda fikr almasha oladi;
CHT.B1.N.G.4	Keng miqyosdagi his-tuyg'ular va hissiyotlar, masalan, g'amginlik, baxtiyorlik, dilxiralik, mamnuniyat, hayratlanishni ifoda kila oladi va ularga javob qaytara oladi;
CHT.B1.N.G.5	Mavzu bo'yicha suhbat yoki muhokamada qatnasha oladi;
CHT.B1.N.G.6	Sayohat, xarid, bank va boshqa umumiy kundalik yoki mehnat faoliyatiga oid vaziyatlardagi yumushlarni samarali uddalay oladi;
Gapirish (Monolog)	
CHT.B1.N.G.7	Ixtisoslikka oid yoki boshqa tanish mavzularda qisqa, mantiqiy fikrlar bilan bog'langan taqdimot qila oladi;
CHT.B1.N.G.8	Tanish vaziyatlar va mavzularni sodda tasvirlab, ular haqida bevosita axborot bera oladi;
CHT.B1.N.G.9	Voqea-hodisalar va tadbirlar tafsilotlarini bog'lay oladi;
CHT.B1.N.G.10	Orzu-umidlar, xohish-istak va rejalarni tasvirlay oladi;
CHT.B1.N.G.11	Ommaga e'lon yoki taqdim qilish jarayonida rejalar yoki chora tadbirlarni tasvirlay oladi;
CHT.B1.N.G.12	Sodda iboralar yordamida masala yoki dalil va sabablarni keltira oladi.
O'qib tushunish	
CHT.B1.N.O'.1	Ixtisoslik sohalarida faktlarga asoslangan murakkab bo'lmagan matnlarni to'liq tushuna oladi;
CHT. B1.N.O'.2	Kundalik va asosiy kasb-hunarga oid hujjatlardagi, masalan, xabarlar, qisqa rasmiy hujjatlardagi tegishli ma'lumotlarni topa oladi va tushuna oladi;

CHT. B1.N.O'3	Gazeta va Internet matnlari va boshqa manbalardagi tegishli fikrlarni tushuna oladi;
CHT. B1.N.O'4	Asbob-uskunalar va qurilmalarni ishlatish va ekspluatatsiya qilish bo'yicha yozma yo'riqnomalarni tushunib, ularga amal qila oladi;
CHT. B1.N.O'5	Ommaviy matnlarni muhokama qilishni nazarda tutgan holda asosiy fikrlarni tushuna oladi.
Yozish	
CHT.B1.N.Y.1	Shaxsiy va kasb-hunarga oid kontekstlarda qaydlar va xabarlar yozib, ularning shoshilinchligi, muhimligi yoki zarurligini ifodalay oladi;
CHT.B1.N.Y.2	Normativ formatga asoslangan qisqa kasb-hunarga oid hisobotlar yoza oladi;
CHT.B1.N.Y.3	Mehnat amaliyoti tajribasiga oid oddiy hisobotlarni yoza oladi;
CHT.B1.N.Y.4	Ish joyi bilan bog'liq masalalar va vujudga keladigan vaziyatlar bo'yicha oddiy hisobotlar yoza oladi;
CHT.B1.N.Y.5	Rezyume va tavsiya xatlarini yoza oladi.

II. TIL KOMPETENSIYASI	
Fonetik kompetensiya	
CHT.B1.T.F.1	Taqdimotlar va muhokamalarda ta'kidlash maqsadida urg'u va intonatsiyadan to'g'ri foydalan oladi.
Leksik kompetensiya	
CHT.B1.T.L.1	Kasb-hunarga oid lug'at boyligidan faol foydalana oladi;
CHT.B1.T.L.2	O'z sohalarida keng tarqalgan xalqaro va turdosh so'zlarni taniydi va ishlata oladi;
CHT.B1.T.L.3	O'z ixtisosligi doirasi va undan tashqarida so'z tuzilishi elementlari (qo'shma so'zlar, prefikslar, suffikslar, so'z o'zagi) ni taniydi va tushuna oladi.
Grammatik kompetensiya	
CHT.B1.T.G.1	Kommunikativ maqsadlarda zarur bo'ladigan chet tili grammatikasining barcha asosiy elementlarini taniy oladi va ulardan to'g'ri foydalana oladi.
RAQAMLI SAVODXONLIK	
CHT.B1.R.1	Turli xil texnologiya turlaridan: Internet, elektron xat, faks kabilardan foydalana oladi, xat jo'natadi va qabul qiladi, xabar va ma'lumotlarni saralay oladi.
CHT.B1.R.2	Sinfda mashxur bo'lgan bo'sh payt mashg'ulotlari haqida kuzatuv olib borib, o'quvchilarda so'rovnoma oladi, mashg'ulotlar turlari haqida ma'lumot yig'a oladi, grafikadan foydalanib, boshqalarga xulosalarni taqdim eta oladi.
CHT.B1.R.3	Kundalik hayot, ijtimoiy voqealar hamda his-tuyg'uar haqida sodda detallardan foydalanib qisqa tavsiflovchi onlayn postlar qo'ya oladi.
CHT.B1.R.4	Internetda berilgan umumiy vazifani bajarish uchun ko'rsatmalarga javob qaytara oladi, savol so'ray oladi hamda aniqlashtirilishini talab qila oladi.

CHT.B1.R.5	G'oyalar, fikrlar va his-tuyg'ularini ifodalab ovoqli xabarlar yaratib internetda e'lon qila oladi va internetda onlayn yozishmalar olib borish, birgalikda ishlash maqsadida texnologiyalardan foydalana oladi.
CHT.B1.R.6	Internetdagi do'sti nima haqida yozayotganini ya'ni qiziqishlarini, kundalik ishlarini va do'stining platformasiga xabar qoldirish, masalan, rejalar haqida va shu bilan birga bu taklifni do'sti rad qilgan yoki qabul qilganini tushuna oladi.
CHT.B1.R.7	Xabarlarini tahlil qilish, boshqalar bilan muloqot qilish, yozma, og'zaki va vizual ma'lumotlarni shakllantirish uchun raqamli texnologiyalar, aloqa vositalari va/yoki ijtimoiy tarmoqlardan kerakli darajada foydalana oladi. (<i>XXI asr ko'nikmalari, Texnologiya savodxonligi</i>).
CHT.B1.R.8	Ma'lum bir loyiha ustida ishlayotgan sinfdoshlari bilan internetda onlayn aloqa qila oladi va bunda taqsimlangan vazifalarni bajarishda aniq ko'rsatmalarga rioya qilgan holda bir-biriga yordam berib, tushunmovchiliklarni bartaraf qila oladi.
CHT.B1.R.9	Savollarga javob berishda yoki muammoni yechishda ma'lumotlarni jamlab, tahlil qilib, umumlashtira oladi (<i>XXI asr ko'nikmalari, Tanqidiy fikrlash va muammoga yechim topish</i>).
CHT.B1.R.10	Lug'atlar, tezaruslar va shunga o'xshash til o'rgatadigan ilovalarni topib ishlata oladi.

CHET TILLARNI O'QITISH MAQSADI

Ta'lim maqsadi ijtimoiy-pedagogik va lingvodidaktik tushuncha sifatida chet til o'qitishga tatbiqan quyidagicha ta'riflanishi mumkin: umumta'limiy yo'nalishdagi o'quv predmetlaridan bo'lmish chet tilni o'rganishga jamiyat va davlatning ijtimoiy buyurtmasi shaklidagi ta'lim mazmunini belgilash, o'qitish jarayonini tashkil etish va muayyan natijalarga erishishni oldindan aniqlash. Maktabda chet til nima uchun o'rganiladi? savoliga javob tariqasida qo'llanadigan termin-tushunchadir. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga chet til **amaliy maqsad, umumta'limiy maqsad, tarbiyaviy maqsad** va **rivojlantiruvchi maqsadda** o'rgatiladi.

Chet til o'qitishning amaliy maqsadiga erishish yo'lida umumta'lim maktab kursida chet til o'rgatishning yakuniy amaliy maqsadi – tinglab tushunish va o'qish, ya'ni chet tilda tinglab va o'qib axborot olishdir. Oraliq amaliy maqsad turlicha talqin etiladi:

I sinfda tinglab tushunish va gapirish amaliy maqsad hisoblanadi.

II-IV sinflarda ham tinglab tushunish va gapirish amaliy maqsad, o'qish va yozuv og'zaki nutqda o'rganilgan til materialini takrorlash va mustahkamlash vositasi;

V-VI sinflarda nutq faoliyati turlaridan tinglab tushunish, gapirish va o'qish – oraliq amaliy maqsad, yozuv – amaliy vosita;

VII-XI sinflarda tinglab tushunish va o'qish – amaliy maqsad, gapirish va yozuv – vosita.

Chet til o'qitishning amaliy maqsadiga erishish yo'lida nutq faoliyatining turlari uchun maxsus mavzular va til materiallari tanlanadi, o'quv vaqtining asosiy qismi ularning o'rganishga bag'ishlanadi, ya'ni mashqlarning aksariyati ushbu nutq faoliyati tur(lar)ida bajariladi.

Amaliy maqsadga lingvistik, kommunikativ va pragmatik kompetensiyalarni egallash orqali erishiladi. Kompetensiya ma'lumki, bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy belgilar majmuidan iborat. Kompetensiya tarkibiga kichik kompetensiyalar kiradi. Lingvistik kompetensiyada lisoniy hodisalarning nutqda qo'llanilishi nazarga olinadi. Kommunikativ kompetensiyada muloqot vaziyati, maqsadi va muloqotdoshlar vazifasiga mos tarzda fikr bildira olish ko'zda tutiladi. Pragmatik kompetensiya kommunikativ vaziyatda o'zini tuta bilish (masalan, takroran so'rash, nutqiy va lisoniy murakkablik tug'ilganda undan chiqar olish) layoqatiga taalluqlidir. Pragmatik kompetensiya tarkibidagi diskursiv kompetensiya og'zaki va yozma nutqdagi izchillikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Amaliy maqsadning ro'yobga chiqishida hosil qilingan barcha kompetensiyalarning uzviy yaxlitligi (sintezi) ta'minlanadi. Amaliy maqsadning ro'yobga chiqishida o'quvchi ta'lim oladi, tarbiyalanadi va uning shaxsi rivojlanadi.

Chet til o'qitish umumta'limiy maqsadining ro'yobga chiqishida o'rganilayotgan til vositasi orqali foydali hayotiy axborot va til haqidagi yangi

sodda ma'lumotlarni o'zlashtirish ko'zda tutiladi. O'quvchining umumiy saviyasini ko'tarish, o'rganilayotgan til va madaniyat haqida yangi ma'lumotga ega bo'lish, muloqot madaniyatini yuksaltirish, aqliy mehnat usullarini qo'llash, fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilarga erishiladi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda asosan lingvistik, strategik (kompensator), o'quv-kognitiv, diskursiv layoqatlar takomillashadi.

Boshqa fanlar qatorida chet til ham majburiy o'quv predmeti maqomida umumiy ta'lim berish/olishga o'z hissasini qo'shadi. Umumta'lim obyekti uchta: til hodisasi, unga oid tushuncha yoki sodda qoida va eng muhimi, chet tildagi diskurs mazmuni.

Chet til o'qitish tarbiyaviy maqsadi o'quvchilarga g'oyaviy tarbiya berish, aqliy mehnat malakalarini singdirish, ularning bilish faolligini oshirish mazkur maqsadning mohiyatini tashkil etadi.

Tarbiyaviy maqsad asosan ikki yo'l bilan ro'yobga chiqariladi:

(1) bevosita chet tilda salomlashish, xayrlashish, predmet va hodisalarning nomlarini bilish, she'r va ashula aytish, o'yinlar bajarish kabilar, ayniqsa, dastlabki darslarda o'quvchilarga ancha qiziqarli yumush sanaladi;

(2) muloqot chog'ida bir-birlariga odob doirasida munosabat bildirish, xatti-harakatlarini sharhlay olish, audiomatn va grafik matnlardan olinadigan axborotlar beqiyos tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Darsdan tashqari o'quv tadbirlarining ham tarbiyaviy ahamiyati cheksiz.

Chet til o'qitishning rivojlantiruvchi maqsadi didaktikadagi rivojlantiruvchi ta'lim ma'nosi bilan hamohang bo'lib, o'quvchi shaxsining aqliy, hissiy va motivastion jihatlarini rivojlantirishni ifodalaydi. O'quvchi intellektual va ma'naviy ozuqa oladi, nutqiy muloqotda o'z hissiyotini sinab ko'radi, muloqotdosh (o'quvchi, muallim, diktir va b.) lar fikrini bilish va o'z fikrini bayon etish orqali uning shaxsi kamol topib boradi. Ta'lim jarayonida, jumladan, chet til o'rganishda me'yordagi lisoniy va nutqiy qiyinchiliklarni yengib o'tish o'quvchi tafakkuri va his-tuyg'ularining rivojlanishini ta'minlaydi.

Rivojlantiruvchi maqsadga nutqiy amallar tufayligina erishiladi. Uning umumta'limiy maqsaddan jiddiy farqi shundaki, o'quv ma'lumotlari olish bilan ta'lim fikran bog'lanadi, ma'lumotning mazmuni turli kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ta'lim, jumladan, chet til o'rganish shaxs rivojlanishida alohida o'rin egallaydi. Til psixologik, kommunikativ, funksional va madaniy hodisa bo'lganligi sababli bilish jarayoni uchun o'ta ahamiyatli, chunki u bilmaslikdan bilishga eltuvchi omildir.

Chet tilda o'quvchi ikki turdagi bilim oladi, birinchisi va asosiysi, nutqiy jarayonda ishtirok etish uchun kerakli algoritmik qoidalar va ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan o'quvchi hayoti davomidagi foydali ma'lumotlar.

Madaniyatlararo muloqot o'zga xalq mentalitetiga xos belgilar va odatlarni singdirishga xizmat qiladi. Bunda boshqalarning turmush tarzini reklama qilish emas, balki chet til sohibining nazari bilan dunyo manzarasiga yangicha qarash va oqibatda, o'z madaniyatini chuqur his qilishga o'rganadi. Umumbashariy va milliy qadriyatlar uyg'unlashuvi sodir bo'ladi.

Chet tilda muloqot qilish to'rt asosiy nutq faoliyati turlari bo'yicha malakalarni shakllantirish demakdir. Nutq faoliyatining to'rt turi: tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv malakalari o'zaro bog'langan holda rivojlantirib boriladi. Bu o'qish va yozish, o'qish va tinglash, o'qish va gapirish, tinglash va o'qish, tinglash va yozish, tinglash va gapirish kabi mashqlar orqali amalga oshiriladi.

Tinglab tushunish. Nutqni tinglab tushunish deganda, so'zlovchining nutqini bevosita yoki texnikaviy vositalar yordamida eshitib idrok etish va fahmlash nazarda tutiladi. Boshqacha qilib aytganda, tinglab tushunish o'zgalar nutqini (jonli tarzda yoki mexanik yozuvdagisini) idrok etish hamda mazmunini fahmlab yetish ma'nosini ifodalaydi. Yangi til materiali o'quvchilarga odatda o'qish yoki tinglash orqali tanishtiriladi. Tinglab tushunish talaffuz va ohangni ham o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Tinglab tushunish uch bosqichli faoliyat bo'lib, unda umumiy eshituv idroki (akustik appersepsiya), so'zlarning tovush tomonini (fonematik) farqlash va mohiyatini anglash orqasida nutqdagi mazmun idrok etiladi, bilib olinadi va tushuniladi. Eshitish sezgisi va analizatori orqali axborot olishning asosiy manbalari sifatida o'qituvchi nutqi, audio-video vositalardan magnitafon yozuvi, radio eshittirish, ovozli diafilm, kino (video) film (yoki undan parcha) va televizion ko'rsatuvlar tavsiya etiladi.

Tinglab tushunishni amalga oshirish uchun quyidagi uch omil nazarda tutiladi. Tinglovchining o'ziga bog'liq omillari (eshitish ko'nikmasining rivojlanganligi, uning xotirasi va matnni diqqat bilan tinglab, mazmunini tushunganligi), tinglash paytidagi shart-sharoit (nutq tezligi, til materiali hajmi va shakli hamda so'zlanayotgan nutqning davom etishi) va nihoyat, qo'llangan materialning lingvistik jihatlar (tinglovchining til tajribasiga mos kelish-kelmasligi) hisobga olinadi, ya'ni tinglab tushunishga beriladigan matn notanish bo'lib, o'quvchilar egallagan til materiallarini o'z ichiga oladi.

Gapirish. Gapirish nutq faoliyati turlaridan biri bo'lib, fikrni og'zaki bayon etishdir. Gapirish – fikr va his-tuyg'uni izhor etish maqsadida muayyan tildagi leksik, grammatik va fonetik hodisalarni qo'llashdan iborat bo'lib, u chet tilni o'rganishning muhim amaliy maqsadidir.

Gapirish – o'quvchilarga o'zlarining fikr-tuyg'ularini ifoda etishga, qiziqishlari va hayotiy faoliyatlari haqida suhbatlashishga hamda ularni boshqalar fikri bilan taqqoslashga imkoniyat yaratib beradi.

Fikrni og'zaki ikki shaklda, ya'ni monolog (yakka nutq) va dialog (juft nutq) tarzida ifodalash mumkin.

Monolog bir kishining nutqi bo'lib, unda ketma-ket keladigan jumlar mantiqan bog'lanadi. Nutqning ohangi va mazmuni qo'yilgan maqsad sari yo'naltiriladi. Monolog quyidagi belgilarga ega:

- mazmunan izchillik kuzatiladi, ifodalanadigan fikrlar tayanch jumlar vositasida asta-sekin rivojlantirib boriladi;

- fikr-mulohazaning ma'lum darajada tugallanganligi nutq namunalarida ifodalanadi.

Dialogda ikki va undan ortiq kishi, tinglovchi hamda gapiruvchi sifatida navbatma-navbat axborot almashadilar.

Dialog quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

- ajralmas dialogik birlikning nutqiy vaziyatga mos kelishi;
- dialog faqat munosabatgina emas, balki gapirishga undovchi (stimul) va javob (reaksiya) jumalari (replikalari)ni almashish natijasi hamdir;
- dialogik birlikdagi qisqartmalarning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi;
- suhbatning mazmunan bog‘liq bo‘lishi.

O‘qish. O‘qish o‘quvchilarning ma‘lumot olishlari uchun juda muhim nutq faoliyati turi bo‘lib, u yozma nutqni idrok etish va anglashdan tarkib topadigan restseptiv nutq faoliyati hisoblanadi. O‘qishda axborot ko‘rish sezgisi orqali olinadi. O‘qish yozma matndan axborot olishga qaratilgan nutq faoliyati turidir.

Matndagi axborotni o‘zlashtirish ovoz chiqarmay o‘qish orqali, axborotni o‘zgalarga yetkazish esa, ovoz chiqarib o‘qish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ovoz chiqarmay o‘qiganda ham ichda gapirish (ichki nutq) sodir bo‘ladi. Ovoz chiqarib o‘qish ovoz chiqarmasdan o‘qishga nisbatan to‘liq nutq hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktabini bitiruvchi o‘quvchilar murakkab bo‘lmagan ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ommabop mavzulardagi, shuningdek, badiiy adabiyotlardagi matnlarni o‘qiy olishlari kerak. O‘qish uchun beriladigan matnlar bir-biridan farq qilib, ularning tuzilishi va bayon etilishi asta-sekin murakkablashib boradi.

O‘qish malakalari shakllangan lisoniy ko‘nikmalar asosida rivojlantiriladi. O‘qish malakasi shunday faoliyatki, u nutq birligining ko‘ruv timsoli, uning nutq-harakat timsoli va mazmunidan tashkil topadi. Uchalasini egallab olish o‘qish malakasining hosil qilinganligidan dalolat beradi. O‘qish uchun berilayotgan matnlar ma‘lumot olish, muloqot qilish hamda leksik-grammatik materiallarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yozuv. Chet tilda o‘rganishda yozuv deganda, o‘rganilayotgan til vositalari (grafemalar va yozma shakldagi leksik va grammatik birliklarning qo‘llanishi, ya‘ni yozish texnikasi) va yozma shaklda fikr bayon etish tushuniladi.

Yozuv grammatik va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozma fikrni bayon etishdir.

Axborotni yozma bayon etish, odatda, ikki yo‘l bilan amalga oshiriladi:

- o‘z fikrini yozish;
- aytib (o‘qib) turilgan o‘zga shaxs nutqini yozuvda ifodalash.

Har ikkala holatda ham yozma matn (diskurs) yaratiladi. Yozish texnikasi deganda, grafika (tovush-harf munosabati va harfning ma‘no bildirish vazifasi), kalligrafiya (husnixat), orfografiya (imlo) nazarda tutiladi.

Grafika o‘qish va yozish texnikasi tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq.

Imlo so‘z va gaplarni yozish va ularga doir qoidalar yig‘indisidir.



Husnixat tushunshasi tarkibiga tovush va tovush birikmalarini yozuvda tasvirlaydigan yozuv-chizuv vositalari majmuasi (harflar, harf birikmalari, harf usti va harf osti belgilari) kiradi.

Husnixat harf, harf birikmasi, soʻz asosida, imlo esa morfema, soʻz gap darajasida, yozma nutq esa gap, abzats (gap boshi) va oʻzaro bogʻlangan matn (diskurs) materialida oʻrgatiladi. Yozuv malakasi husnixat, imlo, tuzish (fikrni yozma bayon etish maqsadida gaplarni biriktirish), yozuvning leksik va grammatik koʻnikmalaridan tashkil topadi.

CHET (INGLIZ, NEMIS VA FRANSUZ) TILLAR BOʻYICHA OʻQUVCHILARGA SINFLAR KESIMIDA QOʻYILADIGAN TALABLAR

1-sinf
Nutqiy kompetensiya
Tinglab tushunish
<i>Tinglash orqali umumiy mazmunni tushunish</i>
1-sinf darajasiga mos soʻzlar, iboralar, juda qisqa va oddiy jummalarni koʻp marotaba takrorlab, koʻrgazmali qurollar koʻmagida tushuntirib, aniq va sekin talaffuz qilingandagina tushunganligini qoʻl bilan koʻrsatish, imo-ishoralar, chizish, stikerlarni joylashtirish, katakchani belgilash, javob berish va h.k. orqali namoyish eta oladi.
1-sinf darajasiga mos juda qisqa va oddiy matnlar, masalan, shaxsiy va boshqa mavzulardagi izohlar, faktlarga asoslangan matnlar, hikoyalardagi aniq belgilarni tinglab tushunadi. Bunda ular koʻp marotaba takrorlash va vizual namoyish etish orqali aniq va sekin talaffuz qilingan boʻlishi kerak.
1-sinf darajasidagi fonema, soʻz va jumlaning talaffuz va intonatsiya xususiyatlarini aniqlay oladi.
<i>Oʻzaro suhbatni tushunish</i>
Shaxsiy va boshqa mavzular boʻyicha juda qisqa va oddiy suhbatlarni tinglab tushunadi. Bunda ular aniq va sekin, takrorlash va vizual vositalar orqali yetkazilishi kerak.
1-sinf darajasidagi shaxsiy va boshqa mavzularda juda qisqa va oddiy suhbatlarning alohida belgilarini tinglab tushunadi.
1-sinf darajasiga mos suhbatda soʻzlovchilarning his-tuygʻulari va munosabatini tushunadi.
<i>Eʼlonlar va koʻrsatmalarni tinglab tushunish</i>
1-sinf darajasiga mos juda qisqa va oddiy, darsda beriladigan koʻrsatmalar, masalan, <i>kitobingizni oching, oʻrningizdan turing</i> kabilarga rioya qiladi.
Juda qisqa va sodda hikoyalarni tinglab, asosiy hodisalarni aniqlay va tartib bilan joylashtira oladi. Bunda ular takrorlash va vizual vositalar orqali namoyish etilishi kerak.
Gapirish
<i>Umumiy soʻzlashuv koʻnikmalari</i>
Soʻzlar, iboralar, matnlardagi juda qisqa va oddiy jummalarni aytadi.
1-sinf darajasidagi juda qisqa qofiyali qatorlar va qoʻshiqlarni aytadi. Bunda mos qofiyalar va urgʻular koʻrgazmali qurollar va audio fayllar yordamida takrorlash orqali taqdim etiladi.
1-sinf darajasiga mos fonemalar, soʻzlar, juda qisqa va oddiy jummalarni toʻgʻri talaffuz qiladi. Bunda alohida fonemalar, umumiy fonemalar va intonatsiyaga eʼtibor qaratadi.

1-sinfga mos keladigan aniq tarkib va kontekstdagi juda kam miqdordagi tanish ssenariylar bo'yicha pragmatik o'zlashtirishni namoyish etadi. Bunda empatiyani ko'rsatish kabi uzluksiz modellashtirish amalga oshadi.

Monolog

1-sinfga mos so'zlar, iboralar yoki o'zining ahvoli, o'ziga tanish bo'lgan predmetlarni tushuntirish uchun juda qisqa va oddiy jumlar ayta oladi.

Umumiy og'zaki muloqot

1-sinfga mos shaxsiy ma'lumotlar, qiziqishlar va mavzularga oid juda qisqa va oddiy savollarni so'raydi va javob beradi.

Tanish va boshqa mavzular bo'yicha juda qisqa va oddiy suhbatlarga jalb qilinadi.

Tanish va boshqa mavzular yuzasidan juda qisqa va oddiy fikr bildiradi. Bunda boshni qimirlatish, ha yoki yo'q deyish kabi o'ta chegaralangan miqdorda qisqa va oddiy munosabat ko'rsatadi.

Matn bilan ishlash

1-sinf darajasiga mos tanish yoki boshqa mavzuda bir o'zi yoki boshqalar bilan hamkorlikda poster, devoriy gazeta kabilarni ishlab chiqadi va uni so'zlar, iboralar yoki juda qisqa va oddiy jumlar orqali taqdim etadi va avvaldan tayyorlangan nutq yordamida aytib beradi.

O'qish

Umumiy o'qib tushunish

1-sinfga mos yoki tanish mavzularda harflar va so'zlarni taniydi va tushunganini moslashtirish, aylanaga olish, kataklarni belgilash orqali ko'rsatadi.

Yo'nalishni aniqlash uchun o'qish

1-sinfga mos maktabga borish, yo'l harakati belgilari, kun tartibi kabi juda qisqa va oddiy belgilarning ma'nosini tushunadi va tushunganini namoyish etadi. Bu holatda belgilarda matn bo'lmaydi, tarkibida tasvir bo'ladi hamda tanish predmetlar va joylar bilan bog'langan bo'ladi.

Yozish

Umumiy yozish ko'nikmasini rivojlantirish

1-sinf darajasiga mos harflar va so'zlarni ko'chirib va/yoki nuqtalar ustidan yoza oladi.

Matn bilan ishlash

1-sinf darajasiga mos mavzular bo'yicha so'zlardan nusxa ko'chirish orqali mavzu bo'yicha audio va vizual tushuntirish berilgandan so'ng og'zaki matnni vizual tasvirlash, masalan, rasm yoki yorliq chizish, devoriy gazeta yaratish, ko'chirilgan so'zlar va tasvirlar bilan jadval yaratish va boshqalarni qila oladi.

Til kompetensiyasi

Grammatik kompetensiya

1-sinfga mos grammatik tuzilmalarni eshitib, tushunganini moslashtirish, kataklarni belgilash, so'zlashish va hokazolar orqali namoyish eta oladi.

1-sinf darajasiga mos grammatik tuzilmalarni tushunganini namoyish etadigan juda qisqa va oddiy jumlarni ayta oladi.

Leksik kompetensiya

1-sinf darajasiga mos mavzulardagi so'zlarni eshitib, tushunganini moslashtirish, katakchalarni belgilash, gapirish va hokazolar orqali namoyish etadi.

2-sinf

Nutqiy kompetensiya

Tinglab tushunish

Tinglash orqali umumiy mazmunni tushunish



2-sinfga mos soʻzlar, iboralar, juda qisqa va oddiy jummalarni tushunganligini qoʻl bilan koʻrsatish, imo-ishoralar, chizish, stikerlarni joylashtirish, katakchani belgilash, javob berish va h.k. lar orqali namoyish etadi. Bunda ular takrorlash va vizual vositalar yordamida aniq va sekin talaffuz qilinishi kerak.

2-sinfga mos juda qisqa va oddiy matnlar, masalan, shaxsiy va boshqa mavzulardagi izohlar, faktlarga asoslangan matnlar, hikoyalardagi aniq belgilarni tinglab tushunadi.

1-sinf darajasidagi fonema, soʻz va jumlaning talaffuz va intonatsiya xususiyatlarini aniqlay oladi. Bunda ular aniq va takrorlangan boʻlishi kerak.

Oʻzaro suhbatni tushunish

2-sinf darajasidagi shaxsiy va boshqa mavzular boʻyicha juda qisqa va oddiy suhbatlarni tinglab tushunadi. Bunda ular aniq va sekin, takrorlash va vizual vositalar orqali yetkazilishi kerak.

2-sinf darajasidagi shaxsiy va boshqa mavzularda juda qisqa va oddiy suhbatlarning alohida belgilarini tinglab tushunadi. Bunda ular aniq va sekin, takrorlash va vizual vositalar orqali yetkazilishi kerak.

2-sinf darajasiga mos suhbatda soʻzlovchilarning his-tuygʻulari va munosabatini tushunadi. Bunda ular aniq va sekin, takrorlash va vizual vositalar orqali yetkazilishi kerak.

Eʼlonlar va koʻrsatmalarni tinglab tushunish

2-sinfga mos juda qisqa va oddiy, darsda beriladigan koʻrsatmalar, masalan, *tinglang, qarang, aytib bering* kabilarni tushunadi va rioya qiladi.

2-sinfga mos juda qisqa va sodda hikoyalarni tinglab, asosiy hodisalarni aniqlay va tartib bilan joylashtira oladi. Bunda ular takrorlash va vizual vositalar orqali namoyish etilishi kerak.

Gapirish

Umumiy soʻzlashuv koʻnikmalari

2-sinf darajasiga mos soʻzlar, iboralar, matnlardagi juda qisqa va oddiy jummalarni ayta oladi.

2-sinf darajasidagi juda qisqa qofiyali qatorlar va qoʻshiqlarni aytadi.

2-sinf darajasiga mos fonemalar, soʻzlar, juda qisqa va oddiy jummalarni toʻgʻri talaffuz qiladi. Bunda alohida fonemalar, umumiy fonemalar va intonatsiyaga eʼtibor qaratadi.

2-sinfga mos keladigan aniq tarkib va kontekstdagi juda kam miqdordagi tanish ssenariylar boʻyicha pragmatik oʻzlashtirishni namoyish etadi. Bunda noverbal signallarni tanish kabi uzluksiz modellashtirish amalga oshadi.

Monolog

2-sinfga mos soʻzlar, iboralar yoki oʻzining ahvoli, oʻziga tanish boʻlgan predmetlarni tushuntirish uchun juda qisqa va oddiy jumlar ayta oladi.

Umumiy ogʻzaki muloqot

2-sinfga mos shaxsiy maʼlumotlar, qiziqishlar va mavzularga oid juda qisqa va oddiy savollarni soʻraydi va javob beradi.

2-sinf darajasidagi tanish va boshqa mavzular boʻyicha juda qisqa va oddiy suhbatlarga jalb qilinadi.

2-sinf darajasidagi tanish va boshqa mavzular yuzasidan juda qisqa va oddiy fikr bildiradi. Bunda boshni qimirlatish, ha yoki yoʻq deyish kabi oʻta chegaralangan miqdorda qisqa va oddiy munosabat koʻrsatadi.

Matn bilan ishlash

2-sinf darajasiga mos tanish yoki boshqa mavzuda bir oʻzi yoki boshqalar bilan hamkorlikda poster, devoriy gazeta kabilarni ishlab chiqadi va uni soʻzlar, iboralar yoki juda qisqa va oddiy jumlar orqali taqdim etadi va avvaldan tayyorlangan nutq yordamida aytib beradi.

Oʻqish

Umumiy oʻqib tushunish

2-sinfga mos yoki tanish mavzularda harflar va soʻzlarni taniydi va tushunganini moslashtirish, aylanaga olish, kataklarni belgilash orqali koʻrsatadi.

2-sinfga mos yoki tanish mavzularda juda qisqa va oddiy hikoyalarni oʻqiydi va undagi aniq maʼlumotni tushunganini namoyish qiladi.

Yoʻnalishni aniqlash uchun oʻqish

2-sinfga mos maktabga borish, yoʻl harakati belgilari, kun tartibi kabi juda qisqa va oddiy belgilarning maʼnosini tushunadi va tushunganini namoyish etadi. Bu holatda belgilarda matn boʻlmaydi, tarkibida tasvir boʻladi hamda tanish predmetlar va joylar bilan bogʻlangan boʻladi.

Tartibli maʼlumotlarni oʻqib tushunish

2-sinf darajasiga mos mavzu boʻyicha juda qisqa va sodda tilda diagrammalarda berilgan maʼlumotlarni oʻqiydi va tushunganini namoyish etadi. Bunda ular audio va koʻrgazmali qurollar yordamida taqdim etiladi.

Yozish

Umumiy yozish koʻnikmasini rivojlantirish

2-sinf darajasiga mos va boshqa mavzular boʻyicha soʻzlar, iboralar, juda qisqa va oddiy jummalarni toʻliq namuna asosida yoza oladi.

Matn bilan ishlash

2-sinf darajasiga mos mavzular boʻyicha taqdimotlarni vizual tasvir, soʻz yoki iboralar bilan qayta ishlaydi, mavzu boʻyicha audio va vizual tushuntirishdan soʻng rasm chizadi, devoriy gazeta tayyorlaydi, diagramma va boshqalarni tuzadi.

2-sinf darajasiga mos yozma matnni vizual tasvir, soʻz va iboralar bilan qayta ishlaydi. (masalan, rasm chizish, devoriy gazeta, tasvirli jadval va boshqalar yaratish)

Til kompetensiyasi

Grammatik kompetensiya

2-sinf darajasiga mos grammatik tuzilmalarni eshitib, tushunganini moslashtirish, kataklarni belgilash, soʻzlashish va hokazolar orqali namoyish eta oladi.

2-sinf darajasiga mos grammatik tuzilmalarni tushunganini namoyish etadigan juda qisqa va oddiy jummalarni ayta oladi.

2-sinf darajasiga mos grammatik tuzilmalarni yozma matn asosida tushunganini moslashtirish, kataklarni belgilash, soʻzlashish va hokazolar orqali namoyish etish.

2-sinf darajasiga mos grammatik tuzilmalarni tushunganini namoyish etadigan soʻzlar hamda juda qisqa va oddiy jummalarni yoza oladi.

Leksik kompetensiya

2-sinf darajasiga mos mavzulardagi soʻzlarni eshitib tushunganini moslashtirish, katakchalarni belgilash, gapirish va hokazolar orqali namoyish etadi.

2-sinf darajasiga mos soʻzlarni tushunganini koʻrsatadigan soʻzlar hamda juda qisqa va oddiy jummalarni ayta oladi.

2-sinf darajasiga tegishli mavzular soʻzlarini yozma matn asosida tushunganini namoyish eta oladi.

2-sinf darajasiga mos soʻzlarni tushunganini namoyish etadigan soʻzlar hamda juda qisqa va oddiy jummalarni yoza oladi.

3-sinf

Nutqiy kompetensiya

Tinglab tushunish

Tinglash orqali umumiy mazmunni tushunish



3-sinfga mos soʻzlar, iboralar, juda qisqa va oddiy jummalarni tushunganligini qoʻl bilan koʻrsatish, imo-ishoralar, chizish, stikerlarni joylashtirish, katakchani belgilash, javob berish va h.k.lar orqali namoyish eta oladi. Bunda ular koʻp marotaba takrorlanishi va koʻrgazmali qurollar orqali aniq va sekin talaffuz qilinishi kerak.

3-sinfga mos shaxsiy va boshqa mavzular yuzasidan juda qisqa va oddiy monologlarni, jumladan, izohlar, faktlarga asoslangan matnlar, hikoyalarning mavzusini tushunadi. Bunda ular koʻp marotaba takrorlangan, vizual namoyish orqali aniq va sekin talaffuz qilingan boʻlishi kerak.

3-sinfga mos juda qisqa va oddiy matnlar, jumladan, turli masalalar va shaxsiy mavzulardagi izohlar, faktlarga asoslangan matnlar, hikoyalar yuzasidan muayyan belgilarni tinglab tushunadi. Bunda ular takrorlash va vizual namoyish etish orqali aniq va sekin talaffuz qilingan boʻlishi kerak.

3-sinfga tegishli fonema, soʻz va jumla darajasida talaffuz va intonatsiya xususiyatlarini, jumladan, boʻlaklarga boʻlish orqali aniqlay oladi. Bunda ular aniq va asta-sekin takrorlanishi kerak.

Oʻzaro suhbatni tushunish

3-sinfga tegishli shaxsiy va boshqa mavzular haqidagi juda qisqa va oddiy suhbatlarni tushuna oladi. Bunda ular aniq va sekin tarzda takrorlash va koʻrgazmali qurollar yordamida yetkazilishi kerak.

3-sinfga tegishli shaxsiy va boshqa mavzular haqida juda qisqa va oddiy suhbatlarning alohida belgilarini tinglab tushunadi. Bunda ular aniq va sekin tarzda takrorlash va koʻrgazmali qurollar yordamida yetkazilishi kerak.

3-sinf darajasiga mos suhbatda soʻzlovchilarning his-tuygʻulari va munosabatini aniqlay oladi. Bunda ular aniq va sekin tarzda takrorlash va koʻrgazmali qurollar yordamida yetkazilishi kerak.

Eʼlonlar va koʻrsatmalarni tinglab tushunish

3-sinfga mos juda qisqa va oddiy, darsda beriladigan koʻrsatmalar, masalan, *oʻqing va savollarga javob bering* kabilarga rioya qila oladi. Bunda ular aniq va sekin tarzda takrorlash va koʻrgazmali qurollar yordamida yetkazilishi kerak.

3-sinfga mos biror narsa tayyorlash jarayoni, masalan, odatiy taom tayyorlash haqidagi juda qisqa va oddiy hikoyali nutqni tinglab, kuzata oladi.

Gapirish

Umumiy soʻzlashuv koʻnikmalari

3-sinfga tegishli soʻzlar, iboralar, matnlardagi juda qisqa va oddiy jummalarni tushunarli aytadi. Xatoga yoʻl qoʻyishi mumkin.

3-sinfga tegishli juda qisqa qofiyali qatorlar va qoʻshiqlarni aytadi.

3-sinf darajasiga mos fonemalar, soʻzlar, juda qisqa va oddiy soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qiladi. Bunda alohida fonemalar, sheʼrlar, soʻzlar segmenti, jumla tarkibidagi urgʻular, intonatsiyaga eʼtibor qaratadi va misollar audio hamda koʻrgazmali qurollar yordamida takrorlanadi.

3-sinfga mos keladigan aniq tarkib va kontekstdagi juda kam miqdordagi tanish ssenariylar boʻyicha pragmatik oʻzlashtirishni namoyish etadi. Bunda uzr soʻrash kabi uzluksiz modellashtirish amalga oshadi.

Barqaror monolog

3-sinfga mos soʻzlar, iboralar, yoki oʻzining ahvolini va oʻziga tanish boʻlgan predmetlarni tushuntirish uchun juda qisqa va oddiy jummalarni ayta oladi.

Umumiy ogʻzaki muloqot

3-sinfga mos shaxsiy maʼlumotlar, qiziqishlari va mavzularga oid juda qisqa va oddiy savollarni soʻraydi va javob beradi.

3-sinfga mos tanish mavzular va boshqa mavzular haqida juda qisqa va oddiy suhbatga jalb qilinadi.

3-sinfga mos tanish mavzular va boshqa mavzular yuzasidan juda qisqa va oddiy fikr bildiradi. Bunda “shunday emasmi?” mazmunidagi oʻta chegaralangan maʼnoda qisqa va oddiy munosabat koʻrsatadi.

Matn bilan ishlash

3-sinf darajasiga mos mavzular boʻyicha juda qisqa va oddiy jummalarni ogʻzaki matnni video tasvir, soʻzlar, iboralar bilan yoki mavzu boʻyicha audio va video tushuntirishdan soʻng qayta ishlaydi, masalan, taqdimotni tinglash va rasm chizish, devoriy gazeta tayyorlash, tasvirlar bilan diagramma yaratish va hokazo.

Grafika, xarita yoki diagrammani soʻzlar yoki raqamlar bilan toʻldiradi.

Oʻqish

Umumiy oʻqib tushunish

3-sinfga mos yoki tanish mavzularda harflar, soʻzlar, juda qisqa va oddiy jummalarni oʻqiydi va tushunganini moslashtirish, aylanaga olish, kataklarni belgilash orqali koʻrsatadi. Bunda takrorlash hamda audio va koʻrgazmali qurollardan foydalaniladi.

3-sinfga mos yoki tanish mavzuga oid juda qisqa va oddiy, badiiy va haqiqatga asoslangan matnlarni oʻqiydi va tushunganini aniqlash va savollarga javob berish orqali namoyish qiladi.

3-sinfga mos yoki tanish mavzuga oid juda qisqa va oddiy hikoyani yoki haqiqatga asoslangan matnni oʻqiydi va undagi maxsus yoki aniq maʼlumotni tushunganini namoyish qiladi. Bunda takrorlash hamda audio va koʻrgazmali qurollardan foydalaniladi.

Yoʻnalishni aniqlash uchun oʻqish

3-sinfga mos maktabga borish, dars jadvali, yoʻl harakati belgilari, kun tartibi kabi juda qisqa va oddiy belgilarni oʻqiy oladi hamda tushunganini namoyish etadi. Bu holatda belgilarda kichik hajmda matn va tarkibida tasvir boʻladi, shuningdek, tanish predmetlar va joylar bilan bogʻliq boʻladi.

Yozishmalarni oʻqish

3-sinfga mos shaxsiy yoki tanish mavzular haqidagi juda qisqa va oddiy xat, elektron pochta yoki xabarni oʻqiydi va maxsus maʼlumotlarni aniqlaydi.

Tartibli maʼlumotlarni oʻqib tushunish

3-sinf darajasiga mos mavzu boʻyicha juda qisqa va sodda tilda diagrammalarda berilgan maʼlumotlarni oʻqiydi va tushunganini namoyish etadi. Bunda ular audio va koʻrgazmali qurollar yordamida taqdim etiladi.

Yozish

Umumiy yozish koʻnikmasini rivojlantirish

3-sinf darajasiga mos mavzular va boshqa mavzular boʻyicha soʻzlar, iboralar va juda qisqa va oddiy jumlar va paragraflarni, koʻpincha, namunacha asosida yoza oladi.

3-sinf darajasiga mos bosh harf va tinish belgilarini toʻgʻri koʻchiradi.

3-sinf darajasiga mos shaxsiy mavzu yoki boshqa mavzular haqida 10 ga yaqin soʻzdan iborat juda qisqa va oddiy tavsifni namunaga amal qilib yozadi.

Yozishmalar

3-sinf darajasiga mos namuna asosida shaxsiy maʼlumotlar haqida juda qisqa va oddiy formali elektron pochta, xat yoki xabar yoza oladi.

Matn bilan ishlash

3-sinf darajasiga mos mavzular boʻyicha taqdimotlarni vizual tasvir, soʻz yoki iboralar bilan qayta ishlaydi, mavzu boʻyicha audio va vizual tushuntirishdan soʻng rasm chizadi, devoriy gazeta tayyorlaydi, diagramma va boshqalarni tuzadi.

3-sinf darajasiga mos yozma matnni vizual tasvir, soʻz va iboralar bilan qayta ishlaydi. (masalan, rasm chizish, devoriy gazeta, tasvirli jadval va boshqalar yaratish)

Grafika, xarita yoki diagrammani soʻzlar yoki raqamlar bilan toʻldiradi.

Til kompetensiyasi

Grammatik kompetensiya

3-sinf darajasiga mos grammatik tuzilmalarni eshitganda tushunganligini moslashtirish, kataklarni belgilash, so'zlashish va hokazolar orqali namoyish eta oladi.

3-sinf darajasiga mos grammatik tuzilmalarni tushunganligini anglatuvchi juda qisqa va oddiy jummalarni ayta oladi.

3-sinf darajasiga mos grammatik tuzilmalarni yozma matn asosida tushunganligini moslashtirish, kataklarni belgilash, so'zlashish va hokazolar orqali namoyish eta oladi.

3-sinf darajasiga mos grammatik tuzilmalarni tushunganligini anglatuvchi so'zlar hamda juda qisqa va oddiy jummalarni yozadi.

Leksik kompetensiya

3-sinf darajasiga mos mavzulardagi so'zlarni eshitib tushuna olganligini moslashtirish, katakchalarni belgilash, gapirish va hokazolar orqali namoyish etadi.

3-sinf darajasiga mos so'zlarni tushunganligini anglatuvchi so'zlar hamda juda qisqa va oddiy jummalarni aytadi.

3-sinf darajasiga tegishli mavzulardagi so'zlarni yozma matn asosida tushunganligini namoyish etadi.

3-sinf darajasiga mos so'zlarni tushunganligini namoyish etadigan so'zlar hamda juda qisqa va oddiy jummalarni yozadi.

4-sinf

Nutqiy kompetensiya

Tinglab tushunish

Tinglash orqali umumiy mazmunni tushunish

4-sinfga mos so'zlar, iboralar, juda qisqa va oddiy jummalarni tushunganligini qo'l bilan ko'rsatish, imo-ishoralar, chizish, stikerlarni joylashtirish, katakchani belgilash, javob berish va h.k. lar orqali namoyish etadi. Bunda ular ko'p marotaba takrorlash va ko'rgazmali qurollar orqali namoyish etish bilan aniq va sekin talaffuz qilinishi kerak.

4-sinfga mos shaxsiy va boshqa mavzular yuzasidan juda qisqa va oddiy monologlarni, masalan, izohlar, faktlarga asoslangan matnlar, hikoyalarning mavzusini tushunadi. Bunda ular ko'p marotaba takrorlangan, vizual namoyish orqali aniq va sekin talaffuz qilingan bo'lishi kerak.

4-sinfga mos juda qisqa va oddiy matnlar, masalan, turli mavzular va shaxsiy mavzulardagi izohlar, faktlarga asoslangan matnlar, hikoyalar yuzasidan aniq belgilarni tinglab tushunadi. Bunda ular bir necha marotaba takrorlash va vizual namoyish etish bilan aniq va sekin talaffuz qilingan bo'lishi kerak.

4-sinfga mos fonema, so'z va jummalarning talaffuz va intonatsiya xususiyatlarini ishlov berish orqali aniqlaydi. Bunda ular aniq va asta-sekin takrorlanishi kerak.

O'zaro suhbatni tushunish

4-sinfga mos shaxsiy va boshqa mavzular haqida juda qisqa va oddiy suhbatlarni tinglab tushunadi. Bunda ular aniq va sekin tarzda takrorlash va ko'rgazmali qurollar yordamida yetkazilishi kerak.

4-sinfga mos shaxsiy va boshqa mavzular haqida juda qisqa va oddiy suhbatlarning alohida belgilarini tinglab tushunadi. Bunda ular aniq va sekin tarzda takrorlash va ko'rgazmali qurollar yordamida yetkazilishi kerak.

4-sinf darajasiga mos suhbatda so'zlovchilarning his-tuyg'ulari va munosabatini aniqlaydi. Bunda ular aniq va sekin tarzda takrorlash va ko'rgazmali qurollar yordamida yetkazilishi kerak.

E'lonlar va ko'rsatmalarni tinglab tushunish

4-sinfga mos juda qisqa va oddiy, darsda beriladigan ko'rsatmalar, masalan, *o'qing, so'ng taqqoslang, savollarga javob bering* kabilarga rioya qila oladi.

4-sinfga mos biror narsa tayyorlash jarayoni, masalan, oddiy taom tayyorlash haqidagi juda qisqa va sodda nutqni tinglab, tushunganini odatiy bosqichlarni bajarish orqali namoyish etadi.

Gapirish

Umumiy so'zlashuv ko'nikmalari

4-sinfga mos so'zlar, iboralar, matnlardagi qisqa va oddiy jummalarni tushunarli aytadi, xatoga yo'l qo'yishi mumkin.

4-sinfga mos juda qisqa qofiyali qatorlar va qo'shiqlarni aytadi.

4-sinf darajasiga mos fonemalar, so'zlar, juda qisqa va oddiy so'zlarni to'g'ri talaffuz qiladi. Bunda alohida fonemalar, she'rlar, so'zlar segmenti, jumla tarkibidagi urg'ular, intonatsiyaga e'tibor qaratadi.

4-sinfga mos aniq tarkib va kontekstdagi juda kam miqdordagi tanish ssenariylar bo'yicha pragmatik o'zlashtirishni namoyish etadi. Bunda savolga aniqlik kiritish kabi uzluksiz modellashtirish amalga oshadi.

Monolog

4-sinfga mos so'zlar, iboralar, yoki o'zining ahvolini va o'ziga tanish bo'lgan predmetlarni tushuntirish uchun juda qisqa va oddiy jumlar aytadi.

Umumiy og'zaki muloqot

4-sinfga mos shaxsiy ma'lumotlar, qiziqishlari va mavzularga oid juda qisqa va oddiy savollarni so'raydi va javob beradi.

4-sinfga mos tanish va boshqa mavzular haqida juda qisqa va oddiy suhbatga kirisha oladi. Bunda audio va ko'rgazmali qurollar ba'zida takrorlanadi.

4-sinfga mos tanish va boshqa mavzular yuzasidan juda qisqa va oddiy fikrlarni bayon etadi. Bunda "shunday emasmi" kabi o'ta chegaralangan miqdorda qisqa va oddiy munosabat ko'rsatadi.

Maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulot

4-sinfga mos juda qisqa va oddiy yo'nalish beradi. Bunda "biror joyga boring" kabi yo'nalish ko'rgazmali qurol orqali aytiladi.

Matn bilan ishlash

4-sinfga mos mavzuda o'zi yoki boshqalar bilan hamkorlikda devoriy gazeta, xarita, broshyura kabilarni ishlab chiqadi va uni so'zlar, iboralar yoki juda qisqa va oddiy jumlar orqali taqdim etadi va avvaldan tayyorlangan nutq yordamida aytib beradi.

O'qish

Umumiy o'qib tushunish

4-sinfga mos yoki tanish mavzularda harflar, so'zlar, juda qisqa va oddiy jummalarni o'qiydi va tushunganini moslashtirish, aylanaga olish, kataklarni belgilash orqali ko'rsatadi. Bunda ba'zida takrorlash hamda audio va ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.

4-sinfga mos yoki tanish mavzuga oid juda qisqa va oddiy, badiiy va haqiqatga asoslangan matnlarni o'qiydi va tushunganini aniqlash, savollarga javob berish orqali namoyish qiladi.

4-sinfga mos yoki tanish mavzuga oid juda qisqa va oddiy hikoyali yoki hujjatli matnni o'qiydi va undagi aniq yoki maxsus ma'lumotni tushunganini namoyish qiladi. Bunda ba'zida takrorlash hamda audio va ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi.

Yo'nalishni aniqlash uchun o'qish

4-sinfga mos maktabga borish, dars jadvali, yo'l harakati belgilari, kun tartibi kabi juda qisqa va oddiy belgilarni o'qiydi va tushunganini namoyish etadi. Bunda belgilarda kichik hajmda matn va tarkibida tasvir bo'ladi hamda tanish predmetlar va joylar bilan bog'langan bo'ladi.

Yozishmalarni o'qish

4-sinfga mos shaxsiy yoki tanish mavzular haqidagi juda qisqa va oddiy xat, elektron pochta yoki xabarni o'qiydi va maxsus ma'lumotlarni aniqlaydi.

Tartibli ma'lumotlarni o'qib tushunish

4-sinf darajasiga mos mavzu bo'yicha juda qisqa va sodda tilda xarita, diagrammalarda berilgan ma'lumotlarni o'qiydi va tushunganini namoyish etadi. Bunda ular audio va ko'rgazmali qurollar yordamida taqdim etiladi.

Ko'rsatmalarni o'qish

4-sinf darajasiga mos juda qisqa va oddiy ko'rsatmalarni o'qiydi va tushunganini namoyish qiladi, masalan, ularni ketma-ketlikda joylashtiradi, bajaradi, navbatdagisini taxmin qiladi va hokazo.

Yozish

Umumiy yozish ko'nikmasini rivojlantirish

4-sinf darajasiga mos va boshqa mavzular bo'yicha so'zlar, iboralar va juda qisqa va oddiy jumlar va paragraflarni yozadi.

4-sinf darajasiga mos bosh harf va tinish belgilarini to'g'ri ko'chiradi.

4-sinf darajasiga mos shaxsiy mavzu yoki boshqa mavzu haqida 20 ga yaqin so'zdan iborat juda qisqa va oddiy tavsifni namunaga amal qilib yozadi.

Yozishmalar

4-sinf darajasiga mos namuna asosida shaxsiy ma'lumotlar haqida juda qisqa va oddiy formal elektron pochta, xat yoki xabar yozadi.

Matn bilan ishlash

4-sinf darajasiga mos mavzular bo'yicha juda qisqa va oddiy jummalarni, og'zaki matn vizual tasvir, so'zlar, iboralar bilan qayta ishlaydi, masalan, taqdimotni tinglash va rasm chizish, devoriy gazeta tayyorlash, tasvirlar bilan diagramma yaratish va hokazo.

4-sinf darajasiga mos yozma matn vizual tasvir, so'zlar, iboralar va tanish yoki boshqa mavzular bo'yicha juda qisqa va oddiy jumlar bilan qayta ishlaydi, masalan, taqdimotni tinglash va rasm chizish, devoriy gazeta yasash, tasvirlar bilan diagramma yaratish va h.k.

Grafika, xarita yoki diagrammani so'zlar yoki raqamlar bilan to'ldiradi.

Til kompetensiyasi

Grammatik kompetensiya

4-sinf darajasiga mos grammatik tuzilmalarni eshitib, tushunganini moslashtirish, kataklarni belgilash, so'zlashish va hokazolar orqali namoyish etadi.

4-sinf darajasiga mos grammatik tuzilmalarni tushunganini namoyish etadigan qisqa va oddiy jummalarni aytadi.

4-sinf darajasiga mos grammatik tuzilmalarni yozma matn asosida tushunganini moslashtirish, kataklarni belgilash, so'zlashish va hokazolar orqali namoyish etadi.

4-sinf darajasiga mos grammatik tuzilmalarni tushunganini namoyish etadigan so'zlar hamda qisqa va oddiy jummalarni yozadi.

Leksik kompetensiya

4-sinf darajasiga mos mavzulardagi so'zlarni eshitib tushunganini moslashtirish, katakchalarni belgilash, gapirish va hokazolar orqali namoyish etadi.

4-sinf darajasiga mos so'zlarni tushunganini ko'rsatadigan so'zlar hamda qisqa va oddiy jummalarni aytadi.

4-sinf darajasiga tegishli mavzular so'zlarini yozma matn asosida tushunganini namoyish etadi.

4-sinf darajasiga mos so'zlarni tushunganini namoyish etadigan so'zlar hamda qisqa va oddiy jummalarni yozadi.

5-sinf

Nutqiy kompetensiya

Tinglab tushunish

Tinglash orqali umumiy mazmunni tushunish

5-sinfga mos soʻzlar, iboralar, qisqa va oddiy jummalarni tushunganligini qoʻl bilan koʻrsatish, javob berish, tanlash va h.k. lar orqali namoyish etadi.

5-sinfga mos shaxsiy va boshqa mavzular yuzasidan qisqa va oddiy monologlarni, masalan, izohlar, faktlarga asoslangan matnlar, hikoyalarning asosiy gʻoyasini tushunadi.

5-sinfga mos qisqa va oddiy matnlar, masalan, turli mavzular va shaxsiy mavzulardagi izohlar, faktlarga asoslangan matnlar, hikoyalar yuzasidan aniq belgilarni tinglab tushunadi.

5-sinfga tegishli fonema, soʻz va jummalarning talaffuz va intonatsiya xususiyatlarini, (tovushlar artikulyatsiyasi, soʻzlar va jumlar urgʻusi, intonatsiya) aniqlaydi.

Oʻzaro suhbatni tushunish

Shaxsiy maʼlumot va 5-sinfga mos boshqa mavzular haqidagi qisqa va oddiy suhbatlarning asosiy gʻoyasini tushunadi.

5-sinfga tegishli shaxsiy va boshqa mavzular haqidagi qisqa va oddiy suhbatlarning alohida belgilarini tinglab tushunadi.

5-sinf darajasiga mos suhbatdagi soʻzlovchilarning vazifalari, his-tuygʻulari va munosabatini aniqlay oladi.

Eʼlonlar va koʻrsatmalarni tinglab tushunish

5-sinfga mos qisqa va oddiy, darsda beriladigan koʻrsatmalar, masalan, *24-betni oching, kitobingizni yoping* kabilarga rioya qila oladi.

5-sinfga mos biror narsa tayyorlash jarayoni, masalan, samolyot yasash, oddiy taom tayyorlash haqidagi qisqa va sodda nutqni tinglab, kuzatish, aniqlash va tartibga solishni amalga oshiradi.

Gapirish

Umumiy soʻzlashuv koʻnikmalari

5-sinfga mos soʻzlar, iboralar, matnlardagi qisqa jummalarni tushunarli aytadi. Xatoga yoʻl qoʻyishi mumkin. Bunda ular chegaralangan miqdorda takrorlanadi.

5-sinfga tegishli juda qisqa qofiyali qatorlar va qoʻshiqlarni aytadi. Bunda mos qofiyalar va urgʻular koʻrgazmali qurollar va audio fayllar yordamida kam miqdorda takrorlash orqali taqdim etiladi.

5-sinf darajasiga mos fonemalar, soʻzlar, qisqa va oddiy jumlar, qisqa va oddiy dialoglarni toʻgʻri talaffuz qiladi. Bunda tovushlar artikulyatsiyasi, soʻzlar va jumla tarkibidagi urgʻular, intonatsiyaga eʼtibor qaratadi va misollar audio va/yoki koʻrgazmali qurollar yordamida cheklangan miqdorda takrorlanadi.

5-sinfga mos keladigan aniq tarkib va kontekstdagi juda kam miqdordagi tanish ssenariylar boʻyicha pragmatik oʻzlashtirishni namoyish etadi. Bunda soʻralayotgan obyektni tasdiqlash yoki rad etish, yordam soʻrash kabi adekvat modellashtirish amalga oshadi.

Monolog

5-sinfga mos oʻzining ahvolini va oʻziga tanish boʻlgan predmetlarni tushuntirish uchun qisqa va oddiy jumlar aytadi.

Umumiy ogʻzaki muloqot

5-sinfga mos shaxsiy maʼlumotlar, qiziqishlar va mavzularga oid qisqa va oddiy savollarni soʻraydi va javob beradi.

5-sinfga mos tanish mavzular va boshqa mavzular haqida qisqa va oddiy suhbatga kirisha oladi. Bunda qisqa va oddiy jumlar qoʻllanadi.



5-sinfga mos tanish mavzular va boshqa mavzular yuzasidan qisqa va oddiy fikr bildiradi. Bunda “qo‘shilaman”, “nazarimda”, “men bunday deb o‘ylamayman” kabi o‘ta chegaralangan miqdorda qisqa va oddiy munosabat ko‘rsatadi.

Maqsadga yo‘naltirilgan mashg‘ulot

5-sinfga mos biror ishni bajarishga yo‘naltirilgan “o‘yin o‘ynang”, ovqat tayyorlang” kabi qisqa va oddiy yo‘nalish, ko‘rsatma, izoh beradi.

5-sinfga mos biror muammoni yechimiga nisbatan rozilik bildirish va uni boshqalarga tushuntirib berish kabi tanish vaziyatlarda maqsadga erishish uchun suhbatlarda qisqa va oddiy jumlar yordamida gapiradi.

Matn bilan ishlash

5-sinfga mos mavzularda bir o‘zi yoki boshqalar bilan hamkorlikda devoriy gazeta, xarita, diagramma kabilarni ishlab chiqadi hamda uni qisqa va oddiy jumlar yordamida aytib beradi.

11-sinfga mos fonema, soʻz va jummalarning talaffuz va intonatsiya xususiyatlarini, masalan, tovushlar artikulyatsiyasi, soʻzlar va jumlar urgʻusi, intonatsiya orqali aniqlay oladi.

Oʻzaro suhbatni tushunish

Shaxsiy maʼlumot va 11-sinf darajasiga mos boshqa mavzular haqidagi suhbatlarning asosiy maʼnosini tushunadi.

11-sinfga mos shaxsiy va boshqa mavzular haqidagi suhbatlarning alohida belgilarini tinglab tushunadi.

11-sinfga mos suhbatdagi soʻzlovchilarning vazifalari, his-tuygʻulari va munosabatini aniqlay oladi.

Eʼlonlar va koʻrsatmalarni tinglab tushunish

11-sinf darajasiga mos darsda beriladigan koʻrsatmalar, masalan, *slayddagi qaydlarni yozib oling, tarqatma materialni toʻldiring* kabilarga rioya qiladi.

11-sinfga mos biror narsani yasash yoki tayyorlash jarayoni, masalan, soʻrovnoma va taqdimot ishlab chiqish, insho tuzish, biror loyihada ishtirok etish jarayonini kuzatish, aniqlash va tartibga solish kabilarni tushunadi.

Gapirish

Umumiy soʻzlashuv koʻnikmalari

11-sinfga mos soʻzlar, iboralar, matnlardagi jummalarni ayta oladi.

11-sinf darajasiga mos fonemalar, soʻzlar, gap va dialoglarni toʻgʻri qaytaradi, aniqlaydi va talaffuz qiladi. Bunda tovushlar artikulyatsiyasi, soʻzlar va jumla tarkibidagi urgʻular, intonatsiyasiga eʼtibor qaratadi.

11-sinfga mos keladigan tayyor va tezkor kontekstdagi kundalik va kam darajada tanish ssenariylar boʻyicha pragmatik oʻzlashtirishni namoyish etadi. Bunda guruhda muhokama qilish, maʼlumot soʻrash, tasdiqlash yoki rad etish, rozilik bildirish, tushunish, takliflarni ishlab chiqish va ularga munosabat bildirish, muqobil yondashuvlarni taklif qilish, insonlarni fikr bildirishga chaqirish kabi yetarli darajadagi tayyorgarlik asosida pragmatik kompetensiyani namoyish etadi.

Monolog

11-sinfga mos mavzularda oldindan tayyorlangan va mashq qilgan holda aniqlik bilan monolog ayta oladi.

Umumiy ogʻzaki muloqot

11-sinfga mos shaxsiy maʼlumotlar, qiziqishlari va mavzularga oid qisqa va oddiy savollarni soʻraydi va javob beradi.

11-sinfga mos kundalik mavzular va boshqa mavhum mavzular haqida qisqa va oddiy suhbatga kirisha oladi. Bunda oddiy jumlar qoʻllanadi va savollar beriladi.

11-sinfga mos tanish mavzular va boshqa mavzular yuzasidan qisqa va oddiy fikr bildiradi. Bunda “shaxsan men”, “nazarimda”, “sizningcha qanday?”, “bu ayni haqiqat”, “tasdiqlash uchun ishonchim komil emas” kabi munosabatlar turini koʻrsatadi.

Maqsadga yoʻnaltirilgan mashgʻulot

11-sinfga mos “muammoni tushuntirib berish”, “maʼlumot almashish”, “aniqlik kiritish” kabi maʼlumotni soʻraydi yoki beradi va kundalik vazifani bajaradi.

11-sinfga mos soʻrovnoma oʻtkazish, hamkorlikda taqdimot tayyorlash, variantlar roʻyxatini baholash kabi vaziyatlarda maqsadga erishish yoki yechim topish uchun muhokama qilish va tekshirishga doir suhbatlarda jumlar yordamida gapiradi.



Matn bilan ishlash

11-sinfga mos mavzularda bir o'zi yoki boshqalar bilan hamkorlikda so'rovnoma natijalari asosida diagramma, poster kabilarni ishlab chiqadi va puxta tuzilgan jumlar yordamida aytib beradi.

O'qish

Umumiy o'qib tushunish

11-sinfga mos yoki tanish mavzularda so'zlar, iboralar, jumalarni o'qiydi va tushunganini moslashtirish, tanlash, raqamlar bilan belgilash, muhokama qilish, xulosa chiqarish, fikr bildirish orqali ko'rsatadi.

11-sinfga mos yoki tanish mavzuga oid juda qisqa va oddiy, badiiy va haqiqatga asoslangan matnlarni o'qiydi va tushunganini asosiy joylari uchun sarlavha tanlash, savollarga javob berish orqali namoyish qiladi.

11-sinfga mos tanish yoki boshqa mavzuga oid va oddiy badiiy yoki haqiqatga asoslangan matnni o'qiydi va undagi ma'lumotni tushunganini namoyish qiladi. Bunda dastavval matnning umumiy ma'nosini anglash, matndagi maxsus ma'lumotlarni topish va so'zlarning ma'nosini kontekstdan topish kabi o'qish usullarini qo'llaydi.

Yo'nalishni aniqlash uchun o'qish

11-sinfga mos tanish predmetlar va joylar, savdo markazlari, poyezd stansiyalariga tegishli qoidalar, ish soatlari haqidagi belgilar, e'lonlar, qisqa va oddiy belgilarni o'qiydi va tushunganini namoyish etadi.

Yozishmalarni o'qish

11-sinf ga mos yoki boshqa mavzular haqidagi xat, elektron pochta yoki xabarni o'qiydi hamda asosiy mavzular va kerakli ma'lumotlarni aniqlaydi.

Tartibli ma'lumotlarni o'qib tushunish

11-sinfga mos yoki boshqa mavzulardagi oddiy matnlarni o'qiydi va ulardagi paragraflar tartibi, paragraflar uchun mos sarlavhalar, ritorik uslub va hokazolar haqidagi oddiy matnni tashkil qilishni o'qib tushunganini namoyish etadi.

11-sinfga mos, tanish yoki darajasiga mos mavzu bo'yicha kundalik so'zlashuv tilida diagramma va veb sahifalarda berilgan ma'lumotlarni o'qiydi va tushunganini namoyish etadi.

Internet yoki kitoblardagi 11-sinf darajasiga mos mavzularda qisqa va oddiy ma'lumotlarni o'qiydi, baholaydi va sharhlaydi.

11-sinf darajasiga mos axborot matnlarini o'qib, solishtiradi va taqqoslaydi.

Ko'rsatmalarni o'qish

11-sinf darajasiga mos ko'rsatmalarni o'qiydi va tushunganini ko'rsatadi, masalan, ularni ketma-ketlikda joylashtiradi, bajaradi, navbatdgisini taxmin qiladi, farqini aniqlaydi va hokazo.

Yozish

Umumiy yozish ko'nikmasini rivojlantirish

11-sinf darajasiga mos va boshqa mavzular bo'yicha mavhum va aniq g'oyalarni ifodalovchi so'zlar, jumlar, paragraflar va matnlar yozadi.

11-sinf darajasiga mos keladigan bosh harf va tinish belgilaridan to'g'ri foydalanadi.

11-sinf darajasiga mos tanish yoki boshqa mavzu bo'yicha 90 ga yaqin so'zdan iborat turli tavsif, masalan, hikoya, tarjimai hol, maqola, elektron pochta va hokazo yozadi.

Yozishmalar

11-sinf darajasiga mos shaxsiy, tanish yoki boshqa mavzu haqida qisqa va oddiy elektron pochta, xat yoki xabar yozadi.

Maqsadga yo'naltirilgan yozish

Mavhum, shuningdek, aniq mavzular bo'yicha yozganlarini qayta ko'rib chiqish uchun o'z-o'zini va tengdoshlarning fikr-mulohazalarini ko'rib chiqadi va muhokamada ishtirok etadi.

Matn bilan ishlash

Og'zaki matnni, agar ular mavzu bilan yaqin bo'lsa, yozma jumalarda qayta ishlaydi, masalan, qisqa nutqni tinglaydi va asosiy ma'lumotlarni yozadi va hokazo.

11-sinf darajasiga mos yozma matnni so'zlar, iboralar yoki oddiy jumlar, tanish yoki boshqa mavzular bo'yicha qayta ishlash, masalan, matnni o'qish va diagramma, jadval, xarita va hokazolarni to'ldirishni amalga oshiradi.

11-sinf darajasiga mos grafika, xarita yoki diagrammalarga muhim fikrlarni qisqacha tavsiflovchi iboralar yoki jumlar bilan izoh beradi.

Til kompetensiyasi

Grammatik kompetensiya

11-sinf darajasiga mos grammatik tuzilmalarni eshitib, tushunganini aniqlash, tanlash, amalda qo'llash, so'zlashish va hokazolar orqali namoyish etadi.

11-sinf darajasiga mos grammatik tuzilmalarni tushunganini namoyish etadigan jumalarni ayta oladi.

11-sinf darajasiga mos grammatik tuzilmalarni yozma matn asosida tushunganini moslashtirish, kataklarni belgilash, so'zlashish va hokazolar orqali namoyish etadi.

11-sinf darajasiga mos grammatik tuzilmalarni tushunganini namoyish etadigan so'zlar, jumlar va matnlarni yozadi.

Leksik kompetensiya

11-sinf darajasiga mos mavzulardagi so'zlarni eshitib, tushunganini moslashtirish, katakchalarni belgilash, gapirish va hokazolar orqali namoyish etadi.

11-sinf darajasiga mos so'zlarni tushunganini ko'rsatadigan so'zlar hamda jumalarni aytadi.

11-sinf darajasiga mos mavzulardagi so'zlarni yozma matn asosida tushunganini namoyish etadi.

11-sinf darajasiga mos so'zlarni tushunganini namoyish etadigan so'zlar hamda jumalarni yozadi.

CHET TILLARINI O'QITISH MAZMUNI

O'qitish mazmuni jahonda e'tirof etilgan didaktik ta'limotga binoan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga oladi. Chet tillni amaliy o'rganishda lingvistik nazariy bilimlar bayon etilmaydi. Bilim til materialini bilish (ko'nikma) va uni o'zlashtirishda yuz beradigan qiyinchiliklarni oddiy so'zlar bilan sodda tilda tushuntirish, ya'ni xatolarning oldini olishga qaratilgan ko'rsatma ma'nosini bildiradi. Ko'nikma tarkibiga kiradigan amaliy qoida ona tili va chet tilida farqlanadigan yoki til ichki interferensiyasini keltirib chiqaradigan chet tili hodisalari bo'yicha beriladi (masalan: artikl' (ona tilida yo'q), otning ko'plik shakli (birlik shakli leksik birlik hisoblanadi) yoki ingliz tilidagi otning ko'plik shakli, qaratqich kelishigi, fe'ning sodda hozirgi zamondagi uchinchi shaxs birlik shakli (har uchulasi [z], [s], [iz] qabilida talaffuz etiladi va til ichki interferensiyasiga sabab bo'ladi).

O'qitish mazmuni komponentlaridan til materiali o'rganilmish chet till sistemasidan minimum sifatida tanlanadi (o'quvchi uchun u lisoniy maksimum hisoblanadi). Minimum til o'rgatish uchun zarur va yetarli bo'lmog'i kerak. Tanlangan minimumdagi lisoniy birliklarni o'zlashtirishda

qiyinchilik tug'diradigan qismigina til materialining o'rgatish mazmunini tashkil etadi va o'quv dasturidan o'rin oladi.

Chet til o'qitish mazmuni uch tarkibli ta'limiy hodisadir:

- 1) nutq mavzulari;
- 2) ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablar;
- 3) til materiali.

O'qitish mazmuni mavjud sharoitga ko'ra, jumladan, o'quv predmetiga ajratilgan vaqtga qarab tanlanadi.

Asosiy nutq mavzulari o'quvchining kundalik hayoti, ijtimoiy hayoti hamda uni o'rab turgan atrof-muhit, O'zbekiston va tili o'rganilayotgan mamlakatga oid kichik mavzularni o'z ichiga qamrab oladi.

O'quv dasturida sinflar bo'yicha taqsimlangan asosiy mavzular miqdori darslikda shu miqdordagi bo'limlar bo'lishi kerak, degan ma'noni anglatmaydi. Asosiy mavzular tarkibidagi kichik mavzular ham til materiali hajmidan kelib chiqqan holda alohida bo'lim bo'lishi mumkin. Tanlab olingan mavzu va matnlar o'quvchilar yoshi va qiziqishlariga mos bo'lishi kerak.

Dasturda "Loyiha ish"lari ham sinflar kesimida kiritildi. Loyiha ishi – bu o'quvchi yoki bir guruh o'quvchilar tomonidan berilgan vazifa yoki muammo yechimini rejalashtirishdan to natijani taqdim etishgacha bo'lgan mustaqil ishlash jarayonidir. Loyihaviy ish demokratik va harakatga yo'naltirilgan ta'lim usuli bo'lib, unda o'quvchilar vazifa yoki muammo ustida ishlash uchun birlashadilar va shu bilan birga ularning har doim faol bo'lishi va maksimal shaxsiy mas'uliyat bilan o'rganishlari ta'minlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida chet til o'quv predmetiga ajratilgan soatlar miqdori:

- I sinfda haftasiga 2 soat (o'quv yiliga 66 soat).
- II-IV sinflarda haftasiga 2 soat (o'quv yiliga 68 soat).
- V-XI sinflarda haftasiga 3 soat (o'quv yiliga 102 soat).

INGLIZ TILI GRAMMATIK MINIMUMI

1-sinf (A1)

1-sinfda quyidagi grammatik hodisalar leksik usulda (qoida bermasdan) o'rgatiladi.

- **"to be" fe'lining hozirgi zamon shakllari (am, is, are):** *My name is Hello, I'm It is a My favorite color is Is it a ball?*
- **Maxsus so'roq gaplar:** *What is your name? How old are you? Where is the doll?*

- **Oddiy hozirgi zamon (tasdiq, so'roq gaplar, qisqa javoblar):** *Do you have green eyes? I have green eyes. I like bananas.*
- **Kishilik olmoshlari (I, He, she, it, we, you, they):** *I'm in the kitchen. She is We are It is a kite.*
- **Ko'rsatish olmoshlari (this, that):** *Who is this? Who is that? This is my mother.*
- **Egalik olmoshlari (my, your, his, her):** *What is your name? My favorite color is This is her mother.*
- **Buyruq mayli:** *Open your books. Stand up. Sit down.*
- **Shaxssiz gaplar:** *It is electric. It is green.*
- **"can" (qila olmoq) modal fe'li:** *Can you swim? I can climb.*
- **Otlarning ko'plik shakli:** *six books, feet, arms.*
- **How many? (sanaladigan otlar bilan)**
- **How much? (sanalmaydigan otlar bilan)**

2-sinf (A1)

- **Hozirgi zamonda "to be" fe'lining (am, is, are) shakllari:** *I am... . She is Is it a ...? Yes, it is./ No, it is not. It is not a*
- **Maxsus so'roq gaplar:** *What are you wearing? Where is your brother?*
- **Oddiy hozirgi zamon fe'li:** *Do you like cereal? Yes, I do/No, I don't. My friend likes fish. I go to school.*
- **Hozirgi davomli zamon fe'li:** *What are you wearing today? I am wearing a blue skirt.*
- **Ko'rsatish olmoshlari (this, that, these, those):** *This/that is a pen. What are these?*
- **Buyruq mayli:** *Do your homework. Look at me.*
- **I like + doing something:** *I like playing basketball. Do you like flying a kite?*
- **Artikl:** *a (an), the*
- **Otlarning ko'plik shakli:** *a goat – goats, an apple – apples.*
- **"can" (qila olmoq) modal fe'li:** *I can... .*
- **Sanoq va tartib sonlar:** *one – the first, two – the second.*
- **Payt predloglari:** *at, in, on.*
- **O'rin predloglari:** *at, in, on, behind, in front of, between, next to: I am at the pet store. The lamp is on the table. The toy story is behind the clothing store.*
- **There is / are:** *There's a couch in the bathroom. There are four chairs in the classroom.*
- **Let's!**

3-sinf (A1)

- **Oddiy hozirgi zamon fe'li (so'roq, tasdiq, inkor shakllari):** *Do we have science on Tuesdays? Yes, we do./No, we don't. What time do you get up? I get up at seven o'clock. So do I./ I don't.*
- **Hozirgi davomli zamon fe'li:** *What are you doing? We're playing baseball.*
- **I like/enjoy/love + doing something:** *He doesn't like reading books. Does he enjoy doing the dishes?*
- **O'rin predloglari:** *between, opposite, in front of, behind, next to.*
- **Alternative so'roq gaplar:** *Is this a bedroom or a living room? It is a...*
- **A lot of, some, any ravishlari;**
- **Payt ravishlari:** *usually, sometimes, often.*
- **Egalik olmoshlaringing absolyut shakllari:** *mine, yours, his, hers, its, ours, theirs.*
- **Modal fe'l:** *can*

4-sinf (A1)

- **"to be" fe'lining o'tgan zamon shakllari: was/were:** *Where were you yesterday morning? It was cold and rainy yesterday.*
- **Sifatning qiyosiy darajasi:** *noisy(ier), quiet(er), fast(er), slow(er), Gorillas are bigger than pandas.*
- **Ibora:** *I want to be... . He/She wants to be a singer.*
- **Ibora:** *to be good at, She is good at skiing, What are you good at?*
- **Iboralar:** *How much...? How often...? How tall...? How high...? How tall are you?*
- **Should феъли (maslahat berish ma'nosida):** *You should feed your pet.*
- **Would like iborasi:** *I would (=I'd) like... . Would you like...?*
- **Iboralar:** *- Please pass me some bread. – Here you are.- Thank you, it's (=it is) very nice.*
- **Otlarning egalik kelishigi:** *This is Sally's book.*
- **Payt ravishlari:** *always, usually, sometimes, often, never, every day.*
- **Buyruq mayli:** *Go straight ahead. Turn left/right at the bank. Stop!*
- **Ibora:** *to look like, What does he/she look like?*
- **Ibora:** *What's the matter? She has a stomachache.*

5-sinf (A1+)

- **Egalik olmoshlari;**

- **Maxsus so‘roq gaplar;**
- **O‘tgan zamon:** *I studied English, What did you do last weekend?*
- **O‘tgan zamon noto‘g‘ri fe‘llar:** *ate, caught, drank, had, saw, swam, went.*
- **Sifat darajalari:** *smart-smarter-the smartest, fast-faster-the fastest, heavy-heavier-the heaviest; the most dangerous;*
- **Modal fe‘llar: should, have to:** *We shouldn’t shout in class. I have to make my bed.*
- **Tartib sonlar suffiksi: -th**
- **Gerund:** *I like reading. I enjoy skating.*
- **Obyekt kelishigidagi kishilik olmoshlari;**
- **Ibora:** *to be made of, It is made of cotton.*

6-sinf (A1+)

- **Ibora:** *I was born in... .*
- **O‘tgan zamonda qo‘shma gaplar:** *The weather was great when we arrived. When I was six, I went to Florida.*
- **To‘g‘ri fe‘llarning o‘tgan zamon shakli:** *lived, worked, washed, tried.*
- **Noto‘g‘ri fe‘llar:** *be-was/were, go-went, buy-bought, see-saw.*
- **Murakkab to‘ldiruvchi:** *We wanted to sleep outside. You asked me to wash the cups and bowls.*
- **Sifat darajalari:** *Who’s better at making sculptures, my sister or me?*
- **Ravishlar:** *slowly, loudly. She sings beautifully.*
- **Modal fe‘llar:** *should, need, We should use wind and solar power. What abilities do we need for physical activities?*
- **“can” modal fe‘lining o‘tgan zamon shakli:** *could, People could buy books in 1980. Could you play online games when you were young? Yes, I could/No, I couldn’t.*
- **Ibora:** *to be going to, They’re going to travel. What are you going to do?*
- **Payt predloglari:** *before, after.*
- **Sanoq va tartib sonlar:** *hundred, thousand, twentieth.*
- **Miqdorni ifodalash:** *it’s about..., it’s more than... , but less than... , 1 meter – 100 centimeters.*
- **Iboralar:** *to be best at, to be worst at, Lily is the best at juggling, He’s the worst at math.*
- **Bog‘lovchili sodda ergash gaplar (Relative clauses):** *The town where we had our parade. The costume that I made. My friend who lives on my street.*

7-sinf (A2)

- **Hozirgi oddiy va davomli zamon (tasdiq, so‘roq, inkor shakllari):** *What sport does Millie like? I go to school every day. I am watching TV.*
- **“to be”, “have/has got” shakllari (umumlashtiruv):** *I’ve got a brother and a sister. There was a building.*
- **I like/don’t like/hate/love + -ing:** *My mom loves / hates listening to opera.*
- **O‘tgan zamon (tasdiq, inkor, so‘roq shakllari), to‘g‘ri va noto‘g‘ri fe’llar (umumlashtiruv);**
- **Someone, anyone, everything, nothing, anywhere, etc.** *Did anyone come to your party?*
- **Pronouns and determiners:** *mine, hers, ours, some, any, a lot of, a few, a bit of.*
- **Hozirgi zamonda fe’lning majhul nisbati:** *This sport is called underwater hockey.*
- **Tasdiq so‘roq gap:** - *It’s lovely, isn’t it? – Yes, it is.*
- **Sanaladigan va sanalmaydigan otlar;**
- **Faqat ko‘plikda ishlatiladigan otlar:** *trousers, pants, jeans, glasses... .*
- **Predloglar:** *by bus/air/train, on foot, on Monday, in 1984.*
- **So‘z yasash:** *fe’l + ing = sifat, amazing.*

8-sinf (A2)

- **Sifat darajalari (qiyoslash va orttirma):** *as...as, so...as, than.*
- **Modal fe’llar:** *can/could, should/shouldn’t, have to/don’t have to, need, must.*
- **Predloglar:** *across, next to, beside, in front of, near, opposite, outside, through.*
- **O‘tgan oddiy va davomli zamon (umumlashtiruv);**
- **O‘tgan zamonda fe’lning majhul nisbati;**
- **Kelasi zamon:** *Future with “going to”, “will”, “shall”.*
- **as, because, so, when kabilardan foydalanish;**
- **Adverbs of degree, Adverbs of manner;**
- **Iboralar:** *Would you like to...? I would (I’d) like to...*
- **Qo‘shma otlar (Compound nouns):** *bus+stop=bus stop.*
- **Geografik joylar oldidan artikllarning ishlatilishi;**
- **Otlardan sifat yasash:** *cloud – cloudy, snow – snowy, fog – foggy;*
- **Qo‘shma fe’llar (Phrasal verbs):** *get on, look after, turn on, pick up, etc.*
- **Taklif iboralari:** *Why don’t we..., Shall we..., Why not..., Let’s.... .*

9-sinf (A2)

- **Hozirgi davomli zamonning kelasi zamon ma'nosida ishlatilishi:** *I'm meeting Julie later. We're playing tennis.*
- **Kelasi zamon: *Future with* "will", "may", "might".** *It may rain tomorrow.*
- **Davomli zamonda ishlatilmaydigan fe'llar:** *Verbs of thinking: believe, understand, know, think, mean, hope. Verbs to describe sensations: see, feel, hear, smell, taste.*
- **Qiyosiy va orttirma darajali ravishlar (Comparative and superlative adverbs):** *slow – slowly – more slowly – the most slowly.*
- **Egalik shakllari: "s" va "of" ning ishlatilishi:** *My brother's hat, A friend of mine.*
- **Modal fe'llar: must, mustn't, have to, don't have to (qo'shimcha ma'nolari);**
- **Gerund va Infinitive:** *She stopped writing. He stopped to buy some water.*
- **Aniqlovchilar: a, an, the, both, all, another, other.**
- **Nisbiy olmoshlar: who, which, that.** *An actor is a person who plays a part in a film or play.*
- **Noto'g'ri fe'llarning sifatdosh II shakli: go-gone, do-done.**
- **Hozirgi tugallangan zamon: ever, never, yet, just, already, since, for.** *I have spoken to a film star, Have you ever swum in a cold lake?*
- **O'zlik olmoshlari: myself, yourselves, etc.** *I stayed there by myself.*
- **Shart ergash gaplar (I shakli):** *If he isn't careful, he'll hurt himself.*
- **Hozirgi va o'tgan zamonda fe'ling majhul nisbati (umumlashtiruv);**

10-sinf (B1)

- **Zamonlar moslashuvi;**
- **Modal fe'llar (ehtimollik ma'nosida):** *can, must, might, could, etc.*
- **Bog'lovchili ergash gaplar (Relative clauses):** *The film that we saw last night was really funny.*
- **Shart ergash gaplar (Zero, first and second conditionals);**
- **Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar:** *Harry said: "I want to leave". Harry said that he wanted to leave.*
- **O'zlashtirma buyruq gaplar:** *Dad asked me to open the door.*
- **Majhul nisbat (hozirgi, o'tgan zamonda, modal fe'llar bilan);**
- **"Unless", "if not" shakllaridan foydalanish:** *Plants don't grow unless they have light.*
- **Iboralar:** *to be interested in, to be into, to be fond of, to be crazy about, to be keen on, to be afraid of.*
- **Ot yasovchi suffikslar: - sion, - ment, - ance, - cy, - ist.**

11-sinf (B1)

- **Sanoqli va sanoqsiz otlar, aniqlovchilar (umumlashtiruv):** *bread, cards, few, a few, much, several, no, plenty of, etc.*
- **Gerund and Infinitive (umumlashtiruv):** *My brother's good at singing. My mom can't stand doing housework. I would like to go.*
- **Zamonlar va ularning moslashuvi (umumlashtiruv);**
- **Ibora:** *used to, We used to live in a small flat.*
- **Modal fe'llar (umumlashtiruv):** *Modals of obligation, necessity and advice: must, need, ought to, should, have to, etc.*
- **Kelasi oddiy va davomli zamon:** *Will you be working all weekend?*
- **Shart ergash gaplar (umumlashtiruv);**
- **Tugallangan o'tgan zamon:** *I'd seen the film before but I enjoyed seeing it again.*
- **Majhul nisbat shakllari (umumlashtiruv);**
- **Bog'lovchili ergash gaplar (Relative clauses, umumlashtiruv);**
- **Artikllar (a, an, the, zero article, umumlashtiruv);**
- **Ko'chirma va o'zlashtirma gaplar (tasdiq, so'roq, inkor, buyruq) gaplar;**
- **Iboralar:** *have/get something done, see someone do/doing, need doing;*
- **Bog'lovchilar:** *In order to, so that, although, whereas, while, because, as.*
- **Predloglar:** *despite, in spite of, according to, because of, besides, instead of, unless.*
- **O'tish so'zlari:** *Actually, finally, firstly, to be honest, frankly speaking, however, etc.*

INGLIZ TILI FANIDAN TALAFFUZ MINIMUMI

- Unli tovushlar (20 ta) va undosh tovushlar (24 ta), urg'u va ohang (intonatsiya) talaffuz minimumidan o'rin oladi. Ayni paytda talaffuzni o'rgatish mazmuni sifatida o'quvchilarga muayyan qiyinchilik tug'diradigan quyidagi fonetik hodisalarga maxsus e'tibor qaratiladi:
- **Unlilar:** qisqa [i, e, æ, ɔ, u, ʌ]; cho'ziq [i:, ɑ:, ɔ:, u:, ə:]; diftonglar [ei, ai, ou, iə, εə, au, uə];
- **Undoshlar tizmasi** (consonant clusters): so'z boshida [sk, sp, st, fl, kl, pl, θr, tw, str, spr ...]; so'z oxirida [ks, ps, ts, ns, kt, ʃt, ʃn, tn, tl, nd, dz, gz, lz dn, bl, ld, vd, lts, ndz, nsl, nts, sts, ksts, ldrnz ...]; so'z o'rtasida [ntl, ndl, ndm, vnt...];
- **So'z oxirida jarangli undoshlar** [b, d, g, z, dʒ, ʒ, v];
- **Tovushlar oppozitsiyasi: qisqa-cho'ziqlik** [i-i:, ɔ-ɔ:, u-u:, ʌ-ɑ:]; diftonglar [ei-ai, iə-εə, ou-ɔi, uə-u, au-ou] undoshlar [f-p, r-l, vw, θs, θf, ðz, v, d, l, r, w].

- **Urg'u:** urg'uli va urg'usiz bo'g'in; ko'p bo'g'inli so'zda birlamchi va ikkilamchi urg'u; fraza urg'usi; gapda urg'u.
- **Intonatsiya** (ohang): ko'tariluvchi va pasayuvchi ohang. Gap turlarida farqlanuvchi intonatsiya.
- Talaffuz minimumi darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish chog'ida leksik va grammatik materiallarning tanlanishi va taqsimoti bilan bog'liq holda sinflar bo'yicha mashqlarda o'zlashtirishga mo'ljallanadi.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTEBLARIDA INGLIZ TILI FANIDAN HAR BIR SINFDAN O'RGANILADIGAN MAVZULAR TAQSIMOTI

1-sinf (A1) 66 soat			
T/r	Mavzu nomi	O'quv mazmuni	Soat (A1)
0.	Salom!	- Tanishuv; - 1-10 sanoq sonlari; - Ranglar. Yoqtirgan rangini so'rash va aytish; - Salomlashish, sanoq sonlar va ranglarga oid so'zlarni tinglab tushunish; - Asosiy salomlashish, sanoq sonlar va ranglarga oid so'zlarni aytish;	6
1.	Maktab	- Maktab, sinfda va darsda ishlatiladigan iboralar; - Sinf jihozlari nomlari; - O'quv qurollari nomlari; - Maktab, sinf va o'quv qurollariga oid so'zlarni tinglab tushunish; - Maktab, sinf va o'quv qurollariga oid so'zlarni aytish;	6
2.	O'yinchoqlar	- O'yinchoqlar nomlari; - O'yinchoqlarning tasviri; - Narsalarning nimadan yasalganligi; - O'yinchoqlarni tanishtirishni tinglab tushunish; - O'yinchoqlarni tasvirlash va unga oid so'zlarni aytish;	6
3.	Oila	- Oila a'zolar va qarindoshlar nomlari; - Oila a'zolarini tanishtirish; - Oila a'zolarini tanishtirishga doir audiolarni tinglab tushunish;	6
4.	Uyda	- Xona nomlari; - Xona jihozlari; - Oila a'zolari va xona nomlariga oid so'zlarni tinglab tushunish; - Oila a'zolari va xona nomlariga oid so'zlarni aytish; - Oila a'zolarining qayerdaligini so'rash va ayta olish;	6

5.	Mening tanam	- Tana a'zolari nomlari; - Tana a'zolariga oid so'z va sodda gaplarni tinglab tushunish; - Tana a'zolarini tasvirlash va unga oid so'zlarni aytish;	6
6.	Oziq-ovqatlar	- Mevalarning nomlari; - Oziq-ovqat nomlari; - Meva va oziq-ovqatga oid so'z va sodda gaplarni tinglab tushunish; - Meva va oziq ovqatga oid so'z va sodda gaplarni aytish;	6
7.	Harakatlar	- Turli harakatlar nomlari; - Turli harakatlarga oid so'z va sodda gaplarni tinglab tushunish; - Turli harakatlarga oid so'z va sodda gaplarni aytish;	6
8.	Hayvonlar	- Hayvonlarning nomlari; - Sifatlar; - Hayvonlar, ularning sifatlariga oid so'z va sodda gaplarni tinglab tushunish; - Hayvonlar, ularning sifatlariga oid so'z va sodda gaplarni aytish;	6
Takrorlash		4	
Loyiha ishi		6	
Nazorat ishi		2	
Umumiy		66	

2-sinf (A1) 68 soat			
T/r	Mavzu nomi	O'quv mazmuni	Soat (A1)
0.	Xush kelibsiz (Hello again!)	- 1-sinfda o'tilganlarni takrorlash; - Ingliz alifbosi bilan tanishuv; - Oila a'zolari va qarindoshlar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, gapirish mashg'ulotlari; - Loyiha ishi;	6
1.	Transport vositalari	- Transport vositalari nomlari; - Transport vositalarini tasvirlash; - Loyiha ishi;	6
2.	Sevimli hayvonlar (Pets)	- Sevimli hayvonlar nomlari; - Sevimli hayvonini tasvirlash; - Loyiha ishi;	6
3.	Kiyimlar	- Kiyimlar nomlari; - Kiyimlarni tasvirlash; - Loyiha ishi;	6

4.	Xona va xona jihozlari	- Xona jihozlari nomlari; - Xonalarni tasvirlash; - Loyiha ishi;	6
5.	Oziq-ovqatlar	- Oshxona bilan tanishuv; - Maktab oshxonasida narsalar; - Oziq-ovqat nomlari; - Loyiha ishi;	6
6.	Mashg'ulotlar	- Turli mashg'ulotlar bilan tanishuv; - Yoqtirgan va yoqtirmagan mashg'ulotlarini ayta olish; - Loyiha ishi;	6
7.	Shaharda	- Jamoat joylari nomlari; - Binolarning qayerda joylashganligiga doir so'zlar; - Binolarning qayerda joylashganligini ayta olish; - Loyiha ishi;	6
8.	Fermada	- Dehqonchilik va chorvachilikka doir so'zlar; - Chorva hayvonlari va parrandalar nomlari; - Hayvon va parrandalarning nima qilayotganini tasvirlash; - Loyiha ishi;	6
Takrorlash		6	
Nazorat ishi		8	
Umumiy		68	

3-sinf (A1) 68 soat			
T/r	Mavzu nomi	O'quv mazmuni	Soat (A1)
0.	Xush kelibsiz (Welcome)	- 2-sinfda o'tilganlarni takrorlash; - Narsa va harakatlarni so'ray olish; - Yil, oy nomlari; - Loyiha ishi;	6
1.	Hovlida	- Ayrim o'simliklar, hayvonlar, hasharot nomlari; - Sevimli hayvoni va uni tasvirlash; - Hayvon va hasharotlarning yashash muhitlari; - Loyiha ishi;	6
2.	Maktabda	- Maktab binolari; - Sinf xonalari nomlari; - Maktab va binolarni tasvirlash; - Loyiha ishi;	6
3.	Maktab kunlari	- Hafta kunlari nomlari;	6

		- Kunning turli vaqtlari (ertalab, tushdan keyin, darsdan keyin, kechqurun) - Maktab fanlari nomlari; - Sevimli kun va dars haqida gapirish; - Loyiha ishi;	
4.	Mening kunim	- Kun davomidagi vazifalar va jarayonlar; - Kundalik mashg'ulotlar va kun tartibi; - Vaqtni ayta olish; - Loyiha ishi;	6
5.	Uyda	- Uydagi jarayonlar; - Uyda qilinishi mumkin bo'lgan vazifalar; - Oila davrasida qilinadigan mashg'ulotlar; - Yoqtirgan va yoqtirmagan mashg'ulotlarini aytish; - Loyiha ishi;	6
6.	Xobbilar	- Xobbi turlari; - Sport turlari; - Sevimli mashg'uloti haqidagi qisqa va sodda matnlarni tinglab tushunish; - Sevimli mashg'uloti haqidagi qisqa va sodda usulda gapira olish; - Loyiha ishi;	6
7.	Bozorda	- Bozorda sotiladigan narsalar; - Meva va sabzavotlar; - Bozor va xarid qilish haqidagi qisqa va sodda matnlarni tinglab tushunish; - Bozor va xarid qilish haqidagi qisqa va sodda gaplarni aytish; - Loyiha ishi;	6
8.	Sohilda	- Sohil va dam olishga oid so'zlar; - Sohilda kerak bo'ladigan narsalar; - Loyiha ishi;	6
Takrorlash		6	
Nazorat ishi		8	
Umumiy		68	

4-sinf (A1) 68 soat			
T/r	Mavzu nomi	O'quv mazmuni	Soat (A1)
0.	Xush kelibsiz (Welcome back!)	- 3-sinfda o'tilganlarni takrorlash; - Odamlarni tasvirlashga oid so'zlar; - Loyiha ishi;	6
1.	Zavqli sport o'yinlari	- Sport turlari, turli xil mashg'ulotlarga doir so'zlar; - Loyiha ishi;	6
2.	Shahar bo'ylab	- Turli jamoat joylari; - Xizmat ko'rsatish va davlat xizmatlariga doir so'zlar;	6

		- Yo'nalishlar; - Loyiha ishi;	
3.	Ishda	- Kasb nomlari; - Mehnat faoliyatiga doir so'zlar; - Loyiha ishi;	6
4.	Yovvoyi hayvonlar	- Turli yovvoyi hayvonlar nomlari; - Hayvonlarning sifatlari; - Yashash muhitlariga doir so'zlar; - Loyiha ishi;	6
5.	Oziq ovqat va ichimliklar	- Oziq-ovqat nomlari; - Turli ichimliklar nomlari; - Payt ravishlari; - Yoqtirgan va yoqtirmagan ovqatlarini aytish; - Loyiha ishi;	6
6.	Salomatlik	- Tana a'zolari; - Turli kasalliklar nomlari; - Salomatlik haqida maslahat olish; - Loyiha ishi;	6
7.	Binolar	- Binolar, ularning joylashuvi, binoning qismlari; - Xonalar nomlari; - Binolar qayerda joylashganligiga doir so'zlar; - Loyiha ishi;	6
8.	Ob-havo	- Ob-havo, fasllar, kundalik o'zgarishlar; - Iqlimga doir so'zlar; - Loyiha ishi;	6
Takrorlash		6	
Nazorat ishi		8	
Umumiy		68	

5-sinf (A1+) 102 soat			
T/r	Mavzu nomi	O'quv mazmuni	Soat (A1+)
0.	Dunyo bo'ylab	- Turli mamlakatlar nomlari; - Sanalar; - Madaniyatga doir so'zlar; - Festivallar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	7
1.	Oila va sevimli hayvonlar	- Oila a'zolari va sevimli hayvonlarga doir so'zlar; - Oila a'zolari va sevimli hayvonlarni tasvirlashga doir so'zlar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	7
2.	Kundalik hayot	- Murojaat qilish, yordam so'rash, xat yozishga doir so'zlar;	7

		- O'zini tutishga doir so'zlar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	
3.	Dengiz dunyosi	- Suv hayvonlari, baliq turlari nomlari; - Suv olamiga doir so'zlar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	7
4.	Zamonaviy texnologiyalar	- Turli zamonaviy texnologiya vositalari nomlari; - Yashash muhitlariga doir so'zlar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	8
5.	Atrof-muhit	- Atrof muhit, iqlim va tabiiy hodisalarga doir so'zlar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	8
6.	Uyda	- Oilaviy mashg'ulotlar; - Uyda qilinadigan ishlarga doir so'zlar; - Ko'plikka doir so'zlar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	8
7.	His-tuyg'ular	- Kayfiyat, his-tuyg'ularga doir so'zlar; - Hayotiy ko'nikmalar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	8
8.	Sport	- Turli xil mashg'ulotlar va sport nomlari; - Tashqarida bajariladigan mashg'ulotlar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	8
Takrorlash		12	
Loyiha ishlari		10	
Nazorat ishi		12	
Umumiy		102	

6-sinf (A1+) 102 soat			
T/r	Mavzu nomi	O'quv mazmuni	Soat (A1+)
0.	Fasllar va ob-havo	- Fasllar, ularning xususiyatlari, ob-havo ma'lumotlariga doir so'zlar; - Fasllar va ob-havoni tasvirlay olish; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	6

1.	Sayohatda	- Sayrga, sayohatga chiqish, dam olish haqida; - Sayohat davomida kerak bo'ladigan narsalar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	8
2.	Talantlar shousi	- Noyob qobiliyat turlari; - Noyob qobiliyatga ega shaxslar haqida; - Qiyoslash; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	7
3.	Dunyo taomlari	- Dunyo taomlari, ovqatlanish madaniyati haqida; - Turli oziq-ovqat nomlari; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	7
4.	Musiqqa	- Musiqiy asboblari; - Musiqiy janrlar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	8
5.	Tarix va bugun	- O'tmishda va hozirda mavjud narsalarni qiyosiy o'tganish; - Bugungi kunda ishlatilmaydigan narsalar haqida; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	8
6.	Atrof-muhit	- Atrof-muhitga doir so'zlar; - Turli resurslar; - Energiya manbalari; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	8
7.	Fazoda	- Fazo, kosmos, atrommik hodisalar; - Sayyoralar va kosmosni o'rganishga doir so'zlar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	9
8.	Mashhur kishilar	- Dam olish va o'yin-kulgu bilan bog'liq so'zlar; - Ko'ngilochar dasturlar; - Mashhur kishilar va ularni tasvirlash; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	9
Takrorlash		12	
Loyiha ishlari		10	
Nazorat ishi		12	
Umumiy		102	

7-sinf (A2) 102 soat

T/r	Mavzu nomi	O'quv mazmuni	Soat (A2)
0.	Sinfda	- Sinf jihozlari, o'quv qurollari; - Sanoq va tartib sonlar; - Maktabda ishlatiladigan iboralar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	4
1.	Sport o'yinlar va	- Sport va o'yinlar, noodatiy sport turlari; - Sport jihozlari; - Turli mashg'ulotlar va ularni tasvirlashga oid so'zlar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	5
2.	Kun tartibi	- Kundalik qilinadigan ishlar; - Kun tartibiga oid birikmalar; - Oziq-ovqat nomlari; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	7
3.	Musiqqa	- Musiqqa janrlari; - Musiqiy asboblarning nomlari; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	4
4.	His-tuyg'ular	- Kundalik hayotdagi his-tuyg'ularni ifodalovchi sifatlar; - Emotsiya va his-tuyg'ular turlari hamda ularni ifodalash; - Marosim va tadbirlar, taklifnomalar; - Marosimlarni rejalashtirish; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	7
5.	Tarixiy voqealar	- O'tmishdagi voqealar va tarixiy binolarga oid so'zlar; - Tarixdagi mashhur kishilar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	4
6.	Kasblar	- Kasblarning nomlari; - Kasblarni tasvirovchi sifatlar; - Ish faoliyatiga oid birikmalar; - O'smirlar uchun ishlar; - Ish taklifi va ishdagi faoliyat; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	7
7.	Sayohat	- Sayohat va dam olishga doir so'zlar va iboralar; - Sayohat bilan bog'liq voqealarni tasvirlash; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	4
8.	Sevimli joylar	- Sevimli joylar haqida;	7

		- Sevimli xona va binolarni tasvirlash; - Bo'sh vaqtda qilinadigan mashg'ulotlar; - Uydagi xavfsizlik qoidalari haqida; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	
9.	Kiyimlar va moda	- Kiyimlar va kiyinish uslubiga doir so'z va iboralar; - Moda va unga doir mavzular; - Kiyimlar qanday materiallardan tayyorlanganligi haqidagi ma'lumotlar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	4
10.	Xarid	- Bozor, xaridga doir so'z va iboralar; - Sotish va sotib olish bo'yicha muloqotga kirishish; - Miqdor va o'lchovlar; - Tadbirkorlik haqida; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	7
Takrorlash		15	
Loyiha ishlari		15	
Nazorat ishi		12	
Umumiy		102	

8-sinf (A2) 102 soat			
T/r	Mavzu nomi	O'quv mazmuni	Soat (A2)
1.	Oziq-ovqatlar	- Oziq-ovqatlar, meva-sabzavotlar, ichimliklar nomlari; - Tashqarida ovqatlanishga oid so'zlar; - Ovqatlar menyusi; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	5
2.	Zamonaviy texnologiyalar	- Zamonaviy texnologiyalar bilan tanishuv; - Kompyuter va internetga oid so'zlar; - Ijtimoiy tarmoqlar va bloglar yozish haqida; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	7
3.	Salomatlik	- Kasallik turlari; - Salomatlik va sog'likka doir so'z va iboralar; - Sog'lom bo'lish uchun maslahat so'rash va berish; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	5
4.	Shahar bo'ylab	- Shahardagi jamoat joylari nomlari; - Joylashuv va yo'nalishlar; - Murakkab otlar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	7

5.	Tabiat mo'jizalari	- Geografik hodisalar va ularni tasvirlash; - Ob-havo, iqlim haqidagi ma'lumotlar; - Geografik joylar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	6
6.	Hayvonlar	- Hayvonot dunyosi bilan tanishuv; - G'aroyib hayvonlar nomlari va ularni tasvirlash; - Hayvonlarni himoya qilish; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	6
7.	Televideniye va ko'ngilochar dasturlar	- Televideniye va unga doir so'z va birikmalar; - Ko'ngilochar dasturlar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	5
8.	Kitoblar va jurnallar	- Kitoblar va ularning janrlari haqida; - Gazeta va jurnallar bilan tanishuv; - O'smirlar uchun jurnallar; - Kitoblar haqida xulosa yozish; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	7
9.	Maktab hayoti	- Maktab hayotiga doir so'z va iboralar; - Darsdan tashqari mashg'ulotlar, sinfdoshlar bilan faoliyat; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	5
10.	Oila	- Oila a'zolari va qarindoshlar, ularning xarakterlarini tasvirlovchi so'zlar; - Qarindoshlik munosabatlari; - Oila turlari va oila tarixi; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	7
Takrorlash		15	
Loyiha ishlari		15	
Nazorat ishi		12	
Umumiy		102	

9-sinf (A2) 102 soat			
T/r	Mavzu nomi	O'quv mazmuni	Soat (A2)
1.	Shaxsiy ma'lumotlar	- Shaxsiy ma'lumotlar; - Shaxsiyatni tasvirlovchi sifatlar; - O'zi va oila a'zolari, do'stlarini tanishtirish va tasvirlash; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	4
2.		- Geografik xususiyatlar, joylar va hodisalar; - Ob-havo;	4

	Atrof-muhit	- Turli xil hayvonlar va ularning yashash muhitlari haqida; - Ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llari; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	
3.	Ta'til sayohat va	- Ta'tildagi mashg'ulotlar; - Transport vositalari nomlari va transportdan foydalanish; - O'smirlar uchun sayohat davomida kerak bo'ladigan narsalar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	4
4.	Turar joylar	- Turar joy va uylar hamda ularni tasvirlash; - Uylarni tasvirlovchi sifatlar; - Uy jihozlari; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	4
5.	Maktab hayoti	- Maktab hayoti va maktabdagi mashg'ulotlar; - Fanlar: yoqtirgan va yoqtirmagan fanlar haqida; - Dunyo maktablari - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	3
6.	Sevimli narsalar	- Sevimli narsalar: turli buyumla va ularning nimadan yasalganligi; - Esda qolarli voqealar hamda ularni tasvirlovchi sifatlar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	4
7.	Sarguzashtlar	- Turli xil mashg'ulotlar, yaqinlar bilan dam olish, kichik sayohatga chiqish; - Dam olish joylari; - Dam olishni rejalashtirish; - Sayohat davomida kerak bo'ladigan buyum nomlari; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	4
8.	Kelajakda	- Kelajakdagi o'zgarishlar; - Kundalik hayotda foydalanadigan buyumlar va ularning zamonaviy versiyalari; - Kelgusi hayotni rejalashtirish; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	4
9.	Sport o'yinlar va	- Sport va o'yinlar turlari; - Sevimli sportini tasvirlash; - Sport va o'yinlar qoidalari; - e-Sport haqida; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	3
10.	Internet	- O'smirlar hamda ularning qiziqishlari va muammolari; - Internet olami: o'smirlar uchun foydali saytlar; - Onlayn mashg'ulotlar: e-mail yozish;	4

	saytlari	- Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	
11.	Shahar hayoti	- Dunyoning yirik shaharlari, shahar hayotiga doir ma'lumotlar - Jamoat joylari; - Ko'cha va harakat xavfsizligi belgilari; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	3
12.	Kino olami	- Kino, filmlar va ularni tasvirlash; - Film janrlari; - Sevimli filmni tasvirlash: yaxshi film qanday xususiyatlarga ega bo'ladi? - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	4
13.	Kundalik hayot	- Kundalik hayotda o'smirlar hayotida sodir bo'ladigan turli voqealar; - O'rganish va tajriba orttirish; - Kundalik maslahatlar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	3
14.	Bozorda	- Bozor va savdo markazlari: ularning turlari; - Bozorda sotiladigan buyumlar; - O'lchov va pul birliklari: pul bilan bog'liq munosabatlar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	4
15.	Bo'sh vaqt	- Bo'sh vaqtda qilinadigan mashg'ulotlar; - Xobbilar, sevimli mashg'ulotlar; - Bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish uchun tavsiyalar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	3
16.	Til o'rganish	- Dunyo tillari va ular haqida ma'lumotlar; - Til o'rganish vositalari va strategiyalari; - O'rganishni o'rganish: tilni samarali o'rganish uchun tavsiyalar; - Katta raqamlar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	4
17.	Salomatlik	- Tana a'zolari va ularning funksiyalari; - O'smirlar salomatligi; - His-tuyg'ularni tasvirlash uchun sifatlar; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	3
18.		- Kitoblar, ularning turlari, kitoblarga doir so'zlar;	4

	Kitoblar	- Kitob o'qishga doir tavsiyalar; - Kutubxona va kitobdan foydalanish ; - Ingliz adabiyoti; - Mavzuga doir tinglab tushunish, o'qib tushunish, gapirish, yozish mashg'ulotlari;	
